



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR



9 MAY
XOTIRA VA
QADRLASH
KUNI



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 9-MAY
№19 (3185)





MILLIY BIRLIK VA HAMJIHATLIK —

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat
Mirziyoyev 8-may kuni
poytaxtimizdagi "G'alaba
bog'i"ga tashrif buyurdi.

ENG KATTA KUCH, ENG KATTA BOYLIK

Ikkinchi jahon urushining tugaganiga qariyb 81 yil bo'ldi. Shuncha vaqt o'tsa-da, urushning achchiq tarixi, u olib kelgan mislsiz kulfat va musibatlar insoniyat xotirasidan o'chgani yo'q. Aksincha, bu mudhish xotiralar bizga tinchlik va osoyishtalik naqadar bebaho ne'mat ekanini doimo eslatib turadi. 9-may – Xotira va qadrlash kuni zamirida ana shunday mohiyat mujassam.

Davlatimiz rahbari "G'alaba bog'i"da ushbu sana munosabati bilan tashkil etilgan xotira marosimida ishtirok etdi.

An'anaga muvofiq, Prezident Shavkat Mirziyoyev "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydi. Mazkur muazzam obida urushda xalqimiz chekkan azob-uqubatlar, matonat va yo'qotishlarning ifodasidir.

– Bugun oramizda sog'-salomat yashab kelayotgan urush va mehnat faxriylari, barcha nuroniylarimizga alohida mehrimiz, ehtromimizni izhor etamiz. Ushbu majmua buyuk g'alabaga munosib hissa qo'shgan ko'p millatli xalqimizning jasorati va qahramonligini tarannum etadigan tabarruk maskan, desak, to'g'ri bo'ladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Ma'lumotlarga ko'ra, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan.

O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ularning jasoratidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan. G'oyat og'ir sharoitga qaramay, xalqimiz urush hududlaridan ko'chirib kelingan 1 million 500 mingga yaqin insonni, jumladan ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani o'z bag'riga olib, mehr ko'rsatgan.

Tadbirda O'zbekiston Qurolli Kuchlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari va nuroniylar ham ishtirok etib, mazkur yodgorlik poyiga gullar qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "G'alaba bog'i"dagi "Millat fidoyilari" xiyobonida ham bo'lib, mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

– Bir yil oldin mana shu hududda "Millat fidoyilari" majmuasini barpo etganimiz albatta bejiz emas. U Vatani himoyasi har bir avlodning muqaddas ishi ekani, vatanparvarlik an'analari davomiyligini eslatib turadi, – dedi Prezidentimiz.

Majmuada mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, el-yurtimiz tinchligi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan 196 nafar harbiy xizmatchi va huquq-tartibot organlari xodimlarining nomlari muhrlab qo'yilgan.

Davlatimiz rahbari ota-onalarga shunday bahodir,

doviyurak farzandlarni dunyoga keltirib, haqiqiy vatanparvar etib tarbiyalagani uchun chuqur minnatdorlik izhor etdi.

Xalqimiz navqiron yoshda dushmanga qarshi o'zini qalqon qilgan bunday fidoyi qahramon o'g'lonlarimizni hech qachon unutmaydi. 2025-yilning o'zida bu majmuani 650 mingga yaqin yurtdoshimiz va xorijiy mehmonlar ziyorat qilgan.

Bu yerda ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarix, vatanparvarlik, "Kelajak soati" darslari o'tkazilmoqda. Bunday ishlar ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega va ularni davom ettirish zarurligi qayd etildi.

Joriy yil buyuk Amir Temur bobomizning 690 yillik tavallud sanasi yurtimizda, chet ellarda keng nishonlanyapti.

Sohibqiron bobomizning davlatchilik, jasorat va qahramonlik mash'alasi bugun ham porlab turibdi. Bu ulug' an'anani jasur askar, ofitser va generallarimiz munosib tarzda davom ettirmoqda. Ular bizning katta boyligimiz, Vatanimizning ishonchli va mustahkam qalqonlari ekani ta'kidlandi.

– Bugun bu yerda saf tortib turgan "Temurbeklar maktablari" o'quvchilari, mard harbiylarimiz timsolida Alpomish, Manguberdi va Amir Temurlarning yangi avlodini ko'ramiz. Buyuk ajdodlarimizning boy merosi, ilm va tajriba maktabi nafaqat muzeylarimiz, balki qalbimizga ham qaytmoqda. Bamisoli ular qayta tirilib, Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini biz bilan birga barpo etmoqda. Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasini borib ko'rgan har bir odam buni chuqur his etadi, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etilganidek, Vatanni himoya qilish – davlat va xalq uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan masala. Bu barchamiz uchun – muqaddas va buyuk burch. Ayniqsa, bugungi o'ta tahlikali zamonda bu o'n karra, yuz karra dolzarb bo'lib bormoqda.

Joriy yil Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi katta tantana bilan nishonlanadi. Ushbu ulug' sana "Yagona Vatani, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan ezgu shior asosida kutib olinayotgani zamirida albatta chuqur ma'no bor.

– Bugun yaqin-atrofimizdagi mintaqalarda bo'layotgan qarama-qarshilik va urush-janjallarni ko'rib turibmiz. Mana shunday murakkab vaziyatda milliy birlik va hamjihatlikni saqlash – eng katta kuch, eng katta boylik ekanini hayotning o'zi yana bir bor tasdiqlamoqda. Vatanni himoya qilish dunyodagi eng ulug' va sharaflidir. Bu haqiqatni chuqur anglab, harbiy qasamyodiga doimo sodiq bo'lib kelayotgan botir va doviyurak o'g'lonlarimizga har qancha tasannolar aytsak arziydi, – dedi davlatimiz rahbari.

"Millat fidoyilari" xiyoboni kecha-yu kunduz jasorat ovozi yangrab turadigan, tinchlik uchun kurashga chorlaydigan qutlug' maskan bo'lib qolishi, minglab, millionlab Vatani posbonlarini tarbiyalashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Vatani oldidagi burchini ado etish chog'ida qahramonlarcha halok bo'lgan o'g'lonlarimizning oila a'zolari va farzandlariga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlash bundan buyon ham izchil davom ettiriladi.

O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni qutlug' ayyom – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 81 yillik bayrami bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu unutilmas kunda, avvalo, jang maydonlarida tengsiz jasorat ko'rsatib, insoniyatni fashizm balosidan xalos etishga munosib hissa qo'shgan qahramon ota-bobolarimizning so'nmas xotirasi oldida bosh egib, ta'zim qilamiz. Bugungi kunda oramizda sog'-omon yashab kelayotgan urush va mehnat faxriylari, nuroniy otaxon va onaxonlarimizga yuksak ehtiromimizni izhor etamiz.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini saqlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilish yo'lida mardlaracha halok bo'lgan azim-u shijoatli harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasini mehr va hurmat bilan yodga olamiz.

Muhtaram do'stlar!

El-yurtimiz fashizmga qarshi kurashda dunyodagi barcha tinchliksevar xalqlar bilan bir safda turib, buyuk g'alabaga munosib hissa qo'shdi. Bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, fashizmga qarshi urushda o'sha davrda 6 million 800 ming kishidan iborat bo'lgan respublikamiz aholisining 1 million 950 ming nafari ishtirok etgan.

Shundan yarim milliondan ziyod kishi jang maydonlarida halok bo'lib, 158 mingdan ko'prog'i bedarak

yo'qolgan, 60 ming nafardan ortiq vatandoshimiz esa nogiron bo'lib qaytgan. Oradan shuncha yil o'tgan bo'lsa-da, bu ayanchli raqamlar qalblarimizni hali ham iztirobga soladi.

Urush davrida 214 ming nafar o'zbekistonlik askar va ofitserlar jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan bo'lsa, ularning 301 nafari eng oliy nishon – Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan, 70 nafar yurtdoshimiz esa uchala darajadagi "Slava" ordeni bilan mukofotlangan.

O'sha olovli yillarda xalqimiz "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" deb kecha-yu kunduz buyuk safarbarlik ruhi bilan yashadi. O'zbekiston frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylandi. Insonparvarlikni buyuk qadriyatga aylantirgan xalqimiz urush hududlaridan ko'chirib keltirilgan 1 million 500 mingdan ortiq insonga, jumladan ota-onasi va oilasidan judo bo'lgan 250 ming nafar bolaga boshpana berib, ularga mehr-oqibat ko'rsatdi.

Qadrli yurtdoshlar!

G'olib va muzaffar ota-bobolarimizning Vatanimiz ozodligi va xalqimiz osoyishtaligi himoyasi yo'lidagi ibratli faoliyatini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish bo'yicha biz ko'plab ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ayniqsa, keyingi yillarda Toshkent shahrida bunyod etilgan G'alaba bog'i hamda uning tarkibidagi "Xotira nuri" va "Millat fidoyilari" yodgorlik komplekslari xalqimiz uchun tabarruk maskanlarga aylanib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash, xususan urush va mehnat faxriylari, kekxa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning sog'lom va mazmunli hayot kechirishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan ishlarimiz izchil davom ettirilmoqda. Bu haqda so'z yuritganda, joriy yilda bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 30 million so'm miqdorida pul mukofotlari berilganini ta'kidlash lozim. Urush qatnashchilari va nogironlari, mehnat faxriylarining salomatligini muhofaza qilish, ularni sanatoriylar, dam olish maskanlariga bepul va imtiyozli asosda yuborish bo'yicha samarali tizim faoliyat ko'rsatmoqda.

Ushbu munavvar ayyom kunlarida joylardagi hokimliklar, jamoatchilik va yoshlar vakillari urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning xonadonlarida bo'lib, oila a'zolarining holidan xabar olib, ularga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz bo'ylab "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida xotira marosimlari, madaniy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, ommaviy sport musobaqalari o'tkazilmoqda.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugungi g'oyat tahlikali zamonning o'zi barchamizdan jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlik, millatlar va diniy konfessiyalar o'rtasidagi do'stlik va totuvlik muhitini yanada qadrlab yashashni talab etmoqda.

Hech qachon unutmaylik, milliy birlik va hamjihatlik – bizning

bebaho boyligimiz, barcha yutuq va g'alabalarimizning mustahkam asosidir.

Hozirgi murakkab davrda Vatanimiz mustaqilligini, xalqimiz osoyishtaligini asrash, iqtisodiy qudratimiz, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini oshirish, jahon hamjamiyati, avvalo, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni zararli ta'sirlardan himoya qilish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda. Ishonchim komil, bu borada 81 yil oldin g'alaba bayrog'ini jahon uzra baland ko'tarishga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning, xalqimizning mardlik va matonat maktabi bizga madadkor kuch bo'lib xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, fashizm balosini bartaraf etishda jonbozlik ko'rsatgan qardosh xalqlarni, barcha ezgu niyatli insonlarni bugungi shonli bayram bilan samimiy tabriklab, ularga barqaror taraqqiyot va farovonlik tilaymiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Sizlarni, hurmatli faxriylarimizni, butun el-yurtimizni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga tinchlik va xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Mehnatkash va donishmand xalqimiz hamisha omon bo'lsin!

Ezgu ishlarimizda Yaratganning o'zi qo'llab-quvvatlasin!

Xotira va qadrlash ayyomi barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

JASORAT VA MATONAT SOHIBLARIGA YUKSAK EHTIROM KO'RSATILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini ziyorat qilib, bayram bilan tabrikledi.

Davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlar Bosh harbiy klinik hospitalida Akmal ota Akramov, Vera Juravskaya, Hasanboy ota Xalmatov va Vladimir Alekseykov bilan dildan suhbatlashdi. Nuroniyning hol-ahvoli va salomatligi bilan qiziqdi. Ularning mashaqqatli hayot yo'li hamda ko'rsatgan jasoratlarini alohida e'tirof etdi.

– Sizlar tarixning jonli guvohi, matonat timsolisizlar. Sizdek tabarruk insonlar bilan uchrashish, o'gitlaringizni tinglash bizga katta ma'naviy kuch bag'ishlaydi. Xalqimiz sizlar bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bugungi tinch va ozod kunlar, avlodlarning baxtiyor istiqboli sizlarning mislsiz fidokorligingiz mahsulidir. Sizlarning ibratli hayot



yo'lingiz yoshlarimiz uchun haqiqiy matonat maktabidir, – dedi Prezident.

Prezidentning joriy yil 16-apreldagi qaroriga muvofiq, urush va mehnat faxriylariga yuksak darajada ehtirom ko'rsatilmoqda.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, frontorti faxriylari hamda mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari davlatimizning doimiy g'amxo'rligida. Ularga moddiy va ma'naviy ko'mak berish barobarida salomatliklarini tiklash uchun respublikamizning eng yaxshi sanatoriylariga imtiyozli yo'llanmalar ajratilgan.

– Yaratgan sizlarga vatanparvarlik va fidokorona mehnatingiz mukofoti sifatida uzoq umr, el-yurt ardog'ida yashash baxtini ato etgan. Sizlarning duolaringiz yurtimiz uchun omonlik, ishlarimizga barakadir, – dedi Prezidentimiz.

Uchrashuvda nuroniylar yurtimizda tarixiy xotirani tiklash, keksalarni e'zozlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Qahramonlik solnomasi

MUDOFAA VAZIRI URUSH QATNASHCHISI XONADONIDA



Ajdodlarimizning mardligi, fidoyiligi va jasorati asrlar osha qalblarimizda yashab, bizni tinchlik va osoyishta hayotning qadriga yetishga undaydi. Aynan shu ezgu g'oya asosida har yili 9-may sanasi yurtimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

Ushbu sana nafaqat o'tganlarni yod etish, balki bugungi tinch hayotning qadriga yetish, Vatanga sadoqat ruhida yashash hamda yosh avlodni tarixiy xotiraga hurmat bilan tarbiyalashga xizmat qiladi.



Davlatimiz rahbarining farmoniga muvofiq, bu yil ham Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga bir martalik pul mukofotlari topshirildi. Shu bilan birga, respublika bo'ylab davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan faxriylar holidan xabar olinib, ularga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov boshchiligidagi bir guruh vazirlik mas'ullari Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Nina Sokolova xonadoniga tashrif buyurib,

Prezidentimiz tabrigini yetkazdi hamda 30 million so'm miqdoridagi pul mukofotini topshirdi. Uchrashuv davomida mudofaa vaziri faxriy qahramon bilan samimiy suhbatlashib, uning boy tajribasi, turmush tarzi, istak va maqsadlari bilan qiziqdi.

Nina Sokolova 1937-yilda Leningradda tug'ilgan. Leningrad qamali davrida oilasi bilan O'zbekistonga ko'chib kelgan. Keyinchalik oliy ta'limni tamomlab, muhandislik sohasida faoliyat yuritgan.

Faxriy ayol davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirib, yurtimizdagi

tinchlik va osoyishtalik uchun takror-takror shukrona aytdi.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi ezgu amallar nafaqat o'tgan ajdodlar xotirasini ulug'lash va ularga cheksiz ehtirom ko'rsatishning yorqin ifodasi, balki jamiyatda inson qadri yuksaltirish, tarixiy xotirani asrab-avaylash va uni avlodlarning avlodga yetkazishning muhim ma'naviy asosidir. Shuningdek, bunday xayrli ishlar kelajak avlodni vatanparvarlik, sadoqat, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga, ularning ong-u shuurida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

TAHRIRIYAT

Inson qadri uchun

XOTIRA VA SADOQAT TIMSOLI

Xotira va qadrlash kuni, shubhasiz, o'zbek xalqi uchun ota-bobolarimizning so'nmas jasoratini yod etish, mehnatkash xalqimizning og'ir sinovlardagi matonati va sabotini anglash, urush qahramonlari hamda faxriylarimiz holidan xabar olish ezgu an'anaga aylanib ulgurgan.

Sana munosabati bilan poytaxtimizning Mirobod tumanida istiqomat qilayotgan, urush yillarining og'ir sinovlarini boshdan kechirgan faxriy avlod vakillaridan biri – Galina Prokofyeva holidan xabar olindi.

Tashrif davomida faxriyga bayram munosabati bilan yo'llangan Prezident tabrigi o'qib eshittirildi. Shundan so'ng mudofaa vazirining o'rinbosari polkovnik Zoirjon Bozorboyev tomonidan 30 million so'm miqdoridagi pul mukofoti hamda esdalik sovg'alar tantanali ravishda topshirildi.

Galina Prokofyeva 1937-yil 14-fevralda Belarusda tug'ilgan. U 1941–1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi davrida konslager tutqunligida bo'lgan insonlardan biridir. Urushning og'ir va mashaqqatli kunlarini boshdan kechirgan Galina opa 1946-yildan buyon Toshkent shahrida istiqomat qilib kelmoqda. Mehnat faoliyati davomida u uzoq yillar Toshkent



tibbiyot instituti tipografiyasida ishlab chiqarish bo'limi mudiri lavozimida samarali faoliyat yuritgan. Halol mehnati va matonati bilan el-yurt hurmatini qozongan faxriy bugungi kunda ham davlat va

jamiyat e'tiborida.

Tashrif davomida mutasaddilar faxriyning salomatligi, yashash sharoiti hamda kundalik ehtiyojlari bilan yaqindan tanishdi. Galina Prokofyeva ko'rsatilayotgan e'tibor



va g'amxo'rlik uchun samimiy minnatdorlik bildirib, bugungi tinch va osoyishta hayotning qadriga yetish kerakligini ta'kidladi.

– Eng katta boylik – tinchlik, – deydi urush faxriysi Galina Prokofyeva. – Bugungi yoshlar urush dahshatini ko'rmasin, yurtimiz doimo tinch bo'lsin, – deya o'z tilaklarini bildirdi u.

Yurtimizda har yili urush qatnashchilari va faxriylariga Xotira va qadrlash kuni arafasida bir martalik pul mukofotlari hamda turli sovg'alar topshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ularga doimiy tibbiy patronaj xizmati ham yo'lga qo'yilgan. Bunday e'tibor va ehtirom yurtimizda inson qadri ulug'lanayotgani, ayniqsa urush va mehnat faxriylariga chuqur hurmat ko'rsatilayotganining yana bir yorqin ifodasidir.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”

9-may – Xotira va qadrlash kuni



TINCHLIK UCHUN KURASHGAN qahramonlar unutilmaydi

Mamlakatimizda dorilamon kunlarga shukronalar aytish, keksalarni e'zozlash, bemorlar va nogironligi bo'lgan insonlar holidan xabar olish, mehmuruvvat va saxovat ko'rsatish xalqimizga xos ezgu qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilar tomonidan amalga oshirilayotgan bunday xayrli ishlar Vatan himoyachilari nafaqat yurt tinchligi, balki inson qadri uchun ham xizmat qilishini yana bir bor namoyon etmoqda.

Ikkinchi jahon urushining dahshatli va sinovli yillarida Vatan tinchligi hamda insoniyat kelajagi uchun kurashgan fidoyi insonlarni e'zozlash bugungi tinch va osoyishta hayotimizning ma'naviy mezoniga aylangan. Ana shunday qahramonlardan biri – urush faxriysi Karnishina Mariya Ivanovna bugun yuksak ehtirom va

alohida e'tibor bilan qutlandi.

1929-yilda Ukrainada tavallud topgan Mariya Ivanovna yosh bo'lishiga qaramay, 1944-yilda armiya safiga chaqirilib, urushning og'ir sinovlarini mardonavor boshdan kechirdi. U 1094-sonli evakuatsiya harbiy qismi qoshidagi gospitalda xizmat qilib, jang maydonlarida og'ir yaralangan askarlarga tibbiy yordam ko'rsatishda fidoyilik namunasini ko'rsatdi. Uning insonparvarligi, sabr-toqati va jasorati fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Bugun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay O'rinbayev, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondoni hamda hududdagi kuch tuzilmalari rahbarlari urush faxriysining xonadoniga tashrif buyurib, uning holidan xabar oldi. Samimiy suhbat va yuksak ehtirom muhitida Mariya Ivanovna 9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami hamda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 81 yilligi munosabati bilan chin dildan muborakbod etildi.

Tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bayram tabrigi o'qib eshittirildi. Unda urush va mehnat faxriylarining beqiyos jasorati, front ortida xizmat qilgan insonlarning mashaqqatli mehnati hamda ularning bugungi avlod uchun qoldirgan ibratli hayoti xalq xotirasida mangu saqlanishi alohida ta'kidlandi.

Zero bugungi tinch osmon, osoyishta hayot va farovon kunlar zamirida urush qatnashchilari va mehnat faxriylarining beqiyos jasorati mujassam. Mardlik va fidoyilik timsoli bo'lgan bunday insonlarni qadrlash, ularning hayot yo'li va matonatini yosh avlodga ibrat sifatida yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida ham Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan yo'qlov tadbirlari tashkil etildi. Harbiy-ma'muriy sektor rahbarlari, Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari urush faxriylari xonadonlariga tashrif buyurib, ularning holidan xabar oldi.

Tashriflar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bayram tabrigi o'qib eshittirilib, faxriylarga davlat tomonidan belgilangan pul mukofotlari hamda esdalik sovg'alar topshirildi. Samimiy va iliq muloqotlar chog'ida front yillarida ular ko'rsatgan jasorat, mardlik va matonat hurmat bilan yodga olinib, bugungi tinch va osuda hayot uchun cheksiz minnatdorlik bildirildi.

Ushbu ezgu tashabbuslarning davomi sifatida Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida istiqomat qiluvchi 115 yoshli Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Ro'ziboy bobo Sattorov xonadoniga ham tashrif amalga oshirildi. Uning uyiga Qashqadaryo viloyati hokimi,

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, nuroniylar va yoshlar tashrif buyurib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bayram tabrigini o'qib eshittirdi hamda pul mukofotini topshirdi.

1941-yilda frontga safarbar etilgan va 1945-yilda sog'-salomat uyiga qaytgan Ro'ziboy bobo Sattorov bugun 115 yoshni qarshi olib, Vatanga sadoqat va jasorat timsoli sifatida xalqimiz tomonidan alohida e'zozlanmoqda. Uning hayot yo'li va frontda ko'rsatgan matonati tinchlik va osoyishtalik qadri yanada chuqur anglashga xizmat qilmoqda.

Bayram munosabati bilan Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi harbiy xizmatchilaridan iborat targ'ibot guruhi qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Jur'at Yakubov rahbarligida poytaxtimizning Yunusobod tumanida istiqomat qiluvchi Vera Anatolyevna Juravskyaning holidan xabar oldi.

Urush faxriysi yurtimizda inson qadri ulug'lanayotgani, keksalarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklardan mamnun ekanini bildirib, davlatimiz rahbariyati hamda harbiy xizmatchilarga samimiy minnatdorlik izhor qildi.

Ushbu ezgu tashabbuslar yurtimizda faxriylarni qadrlash, ularning mashaqqatli hayot yo'li va ko'rsatgan jasoratini ulug'lash, shuningdek yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik va faxr tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday xayrli ishlar jamiyatda inson qadri ulug'lash madaniyatini kuchaytirib, tinchlik va osoyishtalikning haqiqiy qadri chuqur anglashga zamin yaratadi.

TAHRIRIYAT



9-may – Xotira va qadrlash kuni

BURCH, JASORAT, MATONAT: MILLIY O‘ZLIK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “9-may – Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori urushda halok bo‘lgan yurtdoshlarimiz, olovli jangohlardan omon qaytgan ota-bobolarimiz, og‘ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan zahmatkash elimiz, mustaqillik yillarida aziz jonini fido qilgan o‘g‘lonlarimiz xotirasiga ko‘rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi.



Zero qarorda shunday so‘zlar bor: “Bu borada Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi kurashlarda qurbon bo‘lgan ota-bobolarimiz, istiqloq davrida Vatanimiz mustaqilligi himoyasi yo‘lida jonfido etgan mard o‘g‘lonlarimiz xotirasini yod etish, bugungi kunda oramizda sog‘-salomat yashab kelayotgan urush va mehnat faxriylariga, jonkuyar vatandoshlarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularning shonli umr yo‘li, mehnat faoliyati xalqimizning bebaho ma‘naviy boyligiga aylanib, yosh avlodimizni vatanparvar insonlar etib kamol toptirishda jasorat va matonat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda”.

Davlatimiz rahbarining topshiriqlariga muvofiq, joriy yilda 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 30 mln so‘mdan bir martalik mukofot puli berilishi belgilangani har bir urush qatnashchisiga bo‘lgan e‘tiborni har kun har soatda his qilishlarining uzviy davomidir.

Bugun dunyoning turli nuqtalarida qurol ovozi balandroq yangrab, ziddiyatlar

keskinlashayotgan bir vaziyatda tinchlik va osoyishtalikning naqadar bebaho ne‘mat ekanini butun bashariyat teran anglamoqda. Bugungi murakkab sharoitda tinchlikning “bahosi” va zalvori har qachongidan ham yuksalib borayotir. **Shu bois 9-may – biz uchun keyingi yillarda tarixiy g‘alaba sanasi maqomidan insoniyatni hushyorlikka, o‘zaro muloqot va bag‘rikenglikka chorlovchi ma‘naviy quvvat-undov maqomiga aylanib bormoqda.**

Shiddatli zamon va dunyoning mafkuraviy manzarasi hushyorlik bilan birga tarixiy ildizlarimizga sodiqlikni ham talab etmoqda. Shu bois Prezident qarorida qayd etilganidek, **“Burch, jasorat, matonat!” degan uch so‘z O‘zbekiston xalqi uchun davlatchiligimizning ma‘naviy poydevori, millatimizning qon-qoniga singib ketgan fazilati, tarixiy belgisidir.**

O‘zbekiston dunyo miqyosidagi har qanday nizo va qarama-qarshiliklar faqatgina siyosiy muloqot va xalqaro huquq normalari doirasida hal etilishi lozim, degan qat‘iy va o‘zgarmas pozitsiyaga ega. Shuningdek, dunyoning qaysi nuqtasida bo‘lmasin, begunoh insonlar qoni

to‘kilishiga, ayniqsa, murg‘ak bolalar va keksalarning azob chekishiga murosasiz. Xalqimizning tinchliksevarlik tabiati va davlatimizning insonparvarlik tamoyillariga tayangan holda mintaqamizda va butun jahonda barqarorlik o‘rnatilishi tarafdorimiz. Zero faqat tinchlik va totuvlikkina insoniyatga kelajak va taraqqiyot va‘da qiladi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston chinakam matonat maydoniga aylandi. Yurtimizdan frontga otlangan **1 million 950 mingdan** ziyod vatandoshimizning har biri ozodlik uchun qalqon bo‘ldi. Bu suronli yillar xonadonlarimizga ham g‘alaba quvonchini, ham judolik iztirobini olib keldi: **896 366 nafar** jigarbandimizdan ayrildik, minglab oilalar umid va sog‘inch bilan yashadi.

Xalqimizning jang maydonidagi shijoati **200 mingta** jangovar mukofot – orden va medallarda, **301 nafar** Qahramonning oltin yulduzida aks etadi. Jumladan, 24 yoshda “Sovet Ittifoqi Qahramoni” bo‘lgan Qo‘chqor Turdiyev, general Sobir Rahimov, Sharof Rashidov, Zebo G‘aniyeva, Mamadali Topivoldiyev, Ahmadjon Shukurov va boshqa ko‘plab vatandoshlarimizning jasoratlari ham alohida e‘tirof loyiqdir.

O‘zbekistondan **4 555 nafar** ayol urushda qatnashgan, ularning orasida aloqachi, uchuvchi, mergan, zenitchi, tibbiy xodim va razvedkachilar bor edi. O‘zbekistonlik Zebo G‘aniyeva ham “Sovet Ittifoqi Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Ammo g‘alabaning yana bir salmoqli qismi front ortidagi zahmatkash qo‘llar bilan yaratildi. O‘z rizqini askar bilan baham ko‘rgan xalqimiz frontga **10 million** tonnadan ortiq oziq-ovqat va **475 million** rubldan ziyod mablag‘ jo‘natdi. Shuningdek, front uchun **2 100 ta samolyot, 17 342 ta aviamotor, 2 mln 318 ming dona aviabomba, 60 mingga** yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, **22 mln dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln dona granata, 330 mingta parashyut**, harbiy ehtiyoj uchun 100 ming km.dan ortiq turli sim, minalarni aniqlab beruvchi **4 ming 500 dona qurilma, 2 mln 861 ming dona armiya etigi** hamda 59 mingdan ortiq ot va ko‘pgina boshqa harbiy anjomlar yetkazib berdi. Bu raqamlar bizga tinchlik naqadar azizligini eslatib turuvchi, qon va ter bilan yozilgan tarix sahifalaridir.



VA INSON QADRINING YUKSAK IFODASI

Yurtimizda keng quloqch yoigan "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oya xalqimiz tabiatiga azaldan xos ekani butun dunyo oldida amalda isbotlanmoqda. Bundan salkam bir asr avval **1,5 million** evakuatsiya qilingan insonni, jumladan **250 ming** yetim bolani bag'riga bosgan ajdodlarimizning oliyjanoblighi bugun Yangi O'zbekistonning insonparvarlik siyosatida yangi ma'no va kuch bilan bo'y ko'rsatmoqda. "Mehr" operatsiyalari orqali Yaqin Sharqdagi urush olovlari ichidan qaytarilgan yuzlab ayollar va bolalar, qo'shni Afg'oniston xalqiga doimiy ravishda yuborilayotgan ko'magimiz hamda Falastinning G'azo sektoridagi fojialarda jabrlangan begunoh insonlar – yaralangan falastinlik bolalar va ayollar yurtimizga olib kelingani va ularning rehabilitatsiya markazlari va shifoxonalarga joylashtirilib, ko'mak ko'rsatilgani xalqimiz qalbidagi o'sha qudratli mehr hali ham insoniyatga nur taratayotganidan dalolat beradi. Bu ezgu amallar xotira va qadr tushunchasi milliy o'zligimiz va yashash tarzimiz ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu o'rinda aytish lozimki, poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i"da urush yillarida **xalqimiz ko'rsatgan beqiyos qahramonlikni ulug'laydigan, o'zida ona Vatan timsolini mujassam etgan "Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasi hayotimizda haqiqatda ro'y bergan tarixiy voqea – mo'tabar bir inson zangiotalik Zulfiya Zokirova va uning oilasi to'g'risidagi haqiqat asos qilib olingan.** "G'alaba bog'i"ning markazida joylashgan bu muazzam obida barcha O'zbekiston onalariga qo'yilgan haykal bo'lib, ona Vatan ramzini ifoda etadi.

Uinston Charchilning: **"Tarixni bilmaganlar uni takrorlashga mahkumdirlar"**, degan gap bor. Kelajakda urush dahshatlarini takrorlamaslik uchun buva va buvilar, ota-onalar o'z farzandlarini

mana shunday bog' va muzeylarga olib borishlari lozimdir.

Xalqimizning tarixiy xotirasi yaxlit va bo'linmasdir. Bugun nafaqat Ikkinchi jahon urushi qahramonlarini, balki millat ozodligi yo'lida jonfido qilgan barcha ajdodlarimizni ehtirom bilan yod etamiz. Shu ma'noda Turkiston muxtoriyati uchun kurashgan, hurlik va adolat yo'lida shahid bo'lgan millat fidoyilarining jasorati bugungi yosh avlod uchun yuksak ibrat namunasidir. Turkiston ozodligi uchun oldinga chiqqan ma'rifatparvar jadid bobolarimizning orzulari va jang maydonlarida fashizmga qarshi matonat ko'rsatgan otalarimizning qahramonligi bugungi ozod va obod O'zbekiston poydevorida mushtarak bo'lib birlashadi. Zero istiqloq uchun to'kilgan har bir qatra qon, chekilgan zahmat bugungi tinchligimiz va mustaqilligimiz uchun qo'yilgan mustahkam asosdir.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan mamlakatimizda kechayotgan tadbirlarni millatning ruhiy uyg'onishi va tarixiy adolatning qaror topishi sifatida baholash mumkin.

Ayni kunlarda davlat va jamoat tashkilotlarida, ta'lim muassasalarida, harbiy qismlarda "Uch avlod uchrashuvlari" kabi xotira va qadr tushunchasini teran anglashga qaratilgan tadbirlarini tashkil etar ekanimiz, keksalarning donishmandligi va yoshlarning shijoati uchrashgan nuqtada millatning yangi quvvati shakllanayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu uchrashuvlar – ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ajdodlar jasorati bilan vorislar intilishini birlashtiruvchi, millatning mafkuraviy immunitetini mustahkamlovchi jonli ko'prikdir.

Prezidentimizning bayram tadbirlarini yuksak saviyada o'tkazish borasidagi qarori ijrosi doirasida Vatan himoyachilari keng

jamoatchilik bilan yelkama-yelka turibdi. Nuroniy otaxonlarimiz va front ortida mehnat qilgan onaxonlarimizning duolari har bir harbiy xizmatchiga yangicha kuch va madad bag'ishlamogda.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan safdoshlarimizning oila a'zolaridan xabar olish, ularga ma'naviy va moddiy ko'mak berish jarayonlarida insoniylikning eng oliy namunalari namoyon bo'ldi. **Harbiylar tomonidan ushbu xonadonlarning obodonlashtirilishi, bayram sovg'alarining tantanali va samimiy ruhda topshirilishi "Sizlar hamisha e'zozdasiz!" degan muhim haqiqatni yana bir bor tasdiqladi.**

Bugun "Vatanparvarlar bog'lari"da mardlik va jasorat, qadr va saxovat ruhi kezib yuribdi, harbiy orkestrlar kuylari yangramogda, "Jasorat maktabi" o'quvchilari va "Vatan tayanchi" a'zolarining ko'zlarida esa shijoat. Bu ularning ajdodlarimizga munosib voris bo'lishga intilishidir.

Bayram tadbirlari doirasida faxriylarimizning o'z xohishlariga ko'ra, sanatoriylarga kuzatib qo'yilishi, ularning salomatligi va mazmunli hordiq chiqarishi doimiy e'tiborda ekani davlatimizning inson qadriga bo'lgan yuksak g'amxo'rligidir. Zero xotira faqat o'tmishni eslash emas, balki o'tganlarning ezgu ishlarini davom ettirish, tiriklikning har bir lahzasini qadrlash va tinchlikni ko'z qorachig'idek asrash deganidir.

Xotira bizni shunchaki o'tmishga bog'lamaydi, u bizni kelajak oldidagi mas'uliyatimizni anglashga undaydi. Ikkinchi jahon urushi qahramonlari, frontorti zahmatkashlari va mustaqillik yillarida Vatan tinchligi yo'lida jonfido qilgan o'g'lonlarimizning nomi qalbimizning eng tubidan o'rin olgan.

Inson qadri har bir vatandoshimizning bosib o'tgan zahmatli yo'lga hurmat bilan qarash demakdir. Shu ma'noda bugun oramizda yashayotgan, bir paytlar taqdir hukmi va sobiq tuzum siyosati tufayli Afg'oniston urushida qatnashishga majbur bo'lgan, jang maydonlarida sog'lig'idan ayrilgan, minglab jabr-u jaf o'chekkan faxriylarimizni ham alohida e'zozlash vaqti keldi, deb o'ylayman.

Ularning aybi nima edi? Ular shunchaki o'z yigitlik burchini, sobiq tuzum hukmi ostida harbiy qasamyodini bajargan va bu yo'lda begona tuproqlarda jon bergan O'zbekiston farzandlaridir. **Bugun ularga nisbatan tarixiy adolatni tiklab, ularni ham Xotira va qadrlash kunining to'laqonli e'zozga loyiq kishilari, tinchligimiz qadri teran anglyadigan fidoyi insonlar sifatida ulug'lashimiz zurrur.** Ularning zahmatli o'tmishi tinchlik naqadar bebaho ne'mat ekanini eslatib turuvchi jonli saboqdir.

Biz 9-mayni nishonlar ekanimiz, "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida Yangi O'zbekistonning yengilmas ma'naviy qo'rg'onini barpo etamiz. Zero o'z qahramonlarini e'zozlay olgan, o'tmishidan saboq chiqarib, kelajakka aql va zako bilan boqayotgan xalqning istiqboli hamisha nurafshon bo'ladi.

Elimiz uchun eng muqaddas qadriyat bu inson va uning xotirasidir. Shu bois mustaqillik yillarida Vatan tinchligi, el-yurt osoyishtaligi yo'lida o'z jonini fido qilgan har bir yurtdoshimiz, o'g'lonimizning nomi xalqimizning qalbiga va Yangi O'zbekistonning shonli yilnomasiga oltin harflar bilan muhrlangan. Ularning ko'rsatgan jasorati bugungi tinch kunlarimizning mash'alasi, navqiron avlodimiz uchun esa haqiqiy vatanparvarlik maktabidir.

Olimjon O'SAROV,
mudofaa vazirining
vatanparvarlik targ'iboti,
ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda
yoshlar masalalari bo'yicha
maslahatchisi



Mardi maydonlar



DASHT-U DALALAR

Yaqinda "Kattaqo'rg'on" poligonidan qaytdim. Bu galgi xizmat safarimiz yomg'irli kunlarga to'g'ri keldi. Kursantlar artilleriya qurollaridan amaliy otishni olib bordi.

GUVOHLIK BERMASIN...

Tongda dala-o'quv maydoniga yetib bordik. Shu kuni quyosh sinib chiqdi: onda-sonda nurlari qora, bahaybat bulutlar oralab maysalarni "erkalab" turdi. Havoning avzoyi shunaqangi buzuvchi, go'yo yakundagi onlarning bezagiga o'xshardi. Uzoqdagi qoyalar uzra tuman hujumga o'tishga shay askardek bizga g'azabnok qarardi. Cho'l chivinlari birdan g'uvulladi – ko'paydi.

– Mashg'ulot boshlanmay turib tugatilmasa bo'lgani, – dedi kichik serjant Azizbek Raimjonov ko'zlarini pirpiratib.

– Ishoninglar, shu kunga qadar bu kabi manzarani ko'rmaganman.

U astoydil hayratlanib o'tirardi. Raimjonovning sariq va dumaloq yuzida mamnunlik bilan vahima zohir edi.

– Yomg'ir bahona bo'lsin, deysiz-da, a? – dedi leytenant Abror Toshmatov norozi ohangda. – Shu jin urgur bulutdan tosh tushsa ham, tasvirga olish ishlarini davom ettiramiz.

Aborning jahli birdan chiqib ketganiga hayron bo'ldim. Negaki, bu vaziyat unchalik hissiyotga berilishga arzimadi. Qolaversa, Azizning so'zlarida faqat bolalarcha sho'xlik bor edi xolos.

– Tumanda nishonni topish unchalik ham oson ish emas, – dedim maydon tomonga imlab.

So'ng Azizga qaradim. U ikki qo'lini beliga tiragancha bulutlarga tikilib turgan edi. Nazarimda, kichik serjant qalbida uyg'ongan allaqanday hislarni shu orqali jilovlashga urinayotganga o'xshardi.

O'quvlar boshlandi. **Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutidagi** kursantlar guruh rahbarlari ishtirokida tayyorgarlik mashqlariga kirishdi. Shimol tomondan yo'rg'alagan nam shabada yuz va quloqlarimizga kelib sochmadek urilayotganini hisobga olmasa, boyagi tarang vaziyat ancha yumshadi.

Azamatlarga xavfsizlik yo'riqnomasi yetkazilmoqda. Bu orada



Aziz videokamerani qo'lga olib, og'ir qadamlar bilan harbiy xizmatchilar tomon keta boshladi. Uning ortidan ergashdim. Tunda yog'gan yomg'ir tomchilarini o'zida hamon saqlab qolgan maysalar oralab yurib borar ekanman, tizzalarim namlikni his etardi.

– Yonma-yon ishlasak, bir birimizga xalaqit bermaymiz, – dedi Raimjonov muhim gapni aytayotgandek jiddiy ohangda. – Har holda kadr chiroyli chiqadi.

Keyin kursantlarni imlab ko'rsatdi.

– Agar ularning hammasi qurollaridan o'tsa, jarayon anchayin qiziqarli bo'ladi, – dedi va bosh kiyimini to'g'rilab oldi.

– Mashg'ulotga kelgan axir, – dedim fotoapparat obyektivini tozalay turib. – Bu yer harbiylar uchun sirlar eshigi. Undan faqat sadoqatlilar o'tadi.

– Sodiqar ostonasi, deng, – dedi kichik serjant do'rildooq ovozda.

Unga yalt etib qaradim. Aziz mayin jilmayib turardi. Harakatlarida hech qanday sitam yo'q, alam yo'q. Biroq ko'zlari qizargandi.

Oradan 10 daqiqa chamasi vaqt o'tgandan so'ng guruh rahbari

o'quvlarga start berdi. Harbiylar o'z pozitsiyalarini tezda egalladi. Biz tasvirga olayotgan jamoaning yetakchisi a'zolarga vazifalarni taqsimladi: mo'ljalga oluvchi, snaryad joylovchi va tepkini qo'yib yuboruvchi navbatma-navbat harakat olib bordi. Yigitlarni bir chetda turib, kuzatib o'tirdim. Ko'p o'tmay, dastlabki nishonga snaryad joylandi. Hammayoqni qattiq shovqin tutib ketdi. Ochig'i, tizzam bir silkinib olganini his qildim. To'pga yaqinroq turganim uchunmi, yuragim ham o'ynab tushdi. Shu zayl keyingi guruhlar nishonlarni ketma-ket mo'ljalga ola boshladi.

Tog' tomon battar qoraydi. Qirlarni quyuv tuman shaxt bilan qoplayotgan edi. Daf'atan snaryadning ovozidan ham kuchliroq gumburlash atrofni tutib ketdi: momaqaldiraq bo'lgandi. Ko'p o'tmay, yomg'ir shovqin solib, ulkan qamchidek boshimiz uzra charx urardi. Oyoq ostida ko'lmaklar paydo bo'ldi. Bunday vaziyatda tasvirga olish mutlaqoq imkonsiz. Shu bois ortga – yotoqqa qaytdik. Kursantlar shu joyda – poligonda qoldi. Ular mashg'ulot rejasida belgilangan vazifalarni bajarishda davom etardi.

– Ertaga yana ham kengroq masshtabda otishlar amalga oshirilgan ekan, – dedi leytenant Toshmatov dumaloq ko'zlarini o'ynatib. – Endi 4-bosqich kursantlari topshiriqlarni bajaradi. Ular 2-bosqich kursantlariga qaraganda ko'proq bilimga ega. Tajribaliroq-da.

Aborning ovozida xayrixohlik bor edi. Ko'zoynagi ortidan boqib turgan ayyorona dumaloq ko'zlar bizga javdirab qarardi. Nazarimda, u ertalab aytgan so'zlaridan xijolat bo'layotgandi.

– Yillar yilga bog'lansa, har qanday eshikka olib boradigan yo'l kengayadi, deysiz-da? – dedim ho'l bo'lgan harbiy libosning yoqasini silab.

– Bugun ham yaxshi kadrlar bo'ldi, – dedi Aziz xotirjam ohangda. – Ayniqsa, kursantlar Abdumannonov, Odiljonov, Tursunov va Yusufovning harakatida aniqlikni ko'rdim. Yigitlar allaqachon o'zlariga kerakli sirlarni o'rgana olgan. Agar shunday bo'lmasa, birinchi urinishda nishonni yakson etolmasdi.

Biz qayta gaplashmadik. Hamma o'z xayollari bilan band bo'ldi. Jimlikni faqat mashina motoridan chiqayotgan g'uvullash, deraza



Tag'in kechagi o'quv joyida saf tortgan kursantlarning orqa tomonida turibmiz.

O'quvlar tugashiga oz qolgan. Quyosh tomondagi nishonlar qayta-qayta o'qqa tutildi. Oriyentirlar olindi. Rejalar dam-badam o'zgardi. Pozitsiyalar almashildi. Maydon qasir-qusur otilgan o'qlardan bir-bir jonlandi. Bulturdan qolgan yantoq ostidagi yangi maysalarda

...Mart oyi oxirida ta'til olib, qishloqqa bordim. Jussasi yanada kichrayib, tobora keksayib borayotgan onamdan aynan shu savolga javob olmoqchi bo'lgandim.

– Qiz tosh bobomning bobosini ham taniydi, a, ona? – dedim ikkimiz hovli etagida o'tirganimizda.

Onam tishlarini ko'rsatib kuldi. Uning peshonasidagi ajin yanada chuqurlashdi.

– Aslida birinchi Otamizni ham ko'rgan ular, – dedi u to'g'riga qarab. Onamning ovozi titrab chiqdi. Keyin qadoq barmoqlari bilan boshimni ohista siladi. – Qachondir bolalarining sendan ham xuddi shunga o'xshash savolga javob izlaydi: dada, katta onamizning bolaligi va keksaligiga shu qirlar guvoh-a, to'g'rimi, deb.

Jim bo'ldim. O'tirgan joyimda boshim aylanardi. Yuragimning zarbini shunaqangi aniq va tiniq eshityapmanki, shu kunga qadar uning borligini, ha, siqilganini bu qadar bilmasdim. Quyosh "Xo'ja Hasan bobo" qabristoni ustidan og'ib, tug'donalar barglari ortiga o'tib ketguncha qimir etmadim. O'ylarim, qo'rquvlarim borgan sari o'tkirlashib ketdi. Vaqtini shu joyda to'xtatishni istardim...

Snaryadning gumburlashidan xayolim qishloqdan qaytdi. Ammo tanam shunaqa og'ir va jonsiz bo'lib qolgandiki, mana endi qizg'aldoq barglari ustida aylanib, o'z vazifasini astoydil bajarayotgan asalarilarning qanot qoqishi va g'ingillashi ham yoqmasdi. Artilleriya to'plaridan chiqayotgan zarblar, nishonga tegdi, degan kursantlarning hayqirig'idan qochib ketgim kelardi. Bir lahzada bir savol bilan vayron bo'lgandim. Keraksiz va xiyonatkor dunyoning ashaddiy qurboniga aylanganimni yillar davomida bilmay, alaloqibat o'zimni mutlaqo keraksiz, aldamchi hislar oldida qadriyatimni paymon qilganim, qadamlarim bor-yo'g'i jarlik qarshisiga olib kelganini sezib turardim. Borim, erishganim atigi shu edi: muddatidan oldin oqargan sochlar, keraksiz kimsalarning tuzog'iga ilinish va sevgi daryosida eshkaksiz suzganim edi. Ota-onamning bolaligiga guvoh bo'lgan o'sha qoyalariga chiqqim, hammasini so'ragim va men guvoh bo'lolmay sargardon yurgan yillarim hisobini olgim kelardi. Quloqlarim ostida faqat o'sha so'zlar takror va takror yangrardi: "Dada, katta onamizning bolaligi va keksaligiga shu qirlar guvoh, to'g'rimi?"

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"

Muallif suratga olgan



oynalariga kelib urilayotgan tomchilarning shitiri buzardi. G'ildiraklar jon holatda oldinga intiladi. Poligondagi maysalar yanada yashnab ketgan. Uzoqdan qizarib ko'ringan qizg'aldoqlar adog'i yo'q gilamdek yoyilgan. Yana momaqaldiroq bo'ldi. Yotoqqqa kelganimizda chiroqlar xira nur taratardi.

Ertasi kuni bemalolroq harakatlandik. Chunki kechagi yomg'ir tongga qadar yerni "savaladi". Shu bois mashg'ulotlar biroz kechikdi.

– Bugungi o'quvlar kursantlarga to'satdan kelib tushgan jangovar signal bilan boshlanadi, – dedi podpolkovnik Xalil Abdurahmonov. – Bundan ularning o'zlari xabardor emas. Shu orqali yigitlarning jangovar shaylik darajalari tekshiriladi-da.

Podpolkovnik Abdurahmonov sirli qaradi. Uning nigohida bizga ishonmayotganini ilg'ash qiyin emasdi.

– Qancha vaqtimiz bor? – dedi Aziz shoshib. Raimjonovning ko'zlari katta-katta ochilib turardi. U jarayonlarni bilib olish orqali vaqtdan yutmoqchi bo'layotganini sezdim. – Kameralarni

sozlashga ulguramanmi? – qo'shib qo'ydi u.

Podpolkovnik Xalil Abdurahmonov qo'l soatiga nazar tashlab, tag'in tilga kirdi.

– Ulguramiz, – dedi u nihoyat xotirjam tortib. – Chamasi, 10 daqiqalar vaqt qoldi. O'sha yotoqxonadan chiqadi kursantlar, – u chap tomondagi binoga ishora qildi.

Mana endi podpolkovnik xotirjam va tashvishsiz ko'rinardi. Ammo Azizning diqqati soniya sayin oshib bordi. Keyin shu tomonga qarab yurdik. Ko'p o'tmay, jarayonlar boshlandi. O'g'lonlar ikki tomondan – o'ng va chap qanotdan harakatlandi. Ular ketma-ket o'z pozitsiyalarini egallab, harbiy texnikalarga chiqdi. Kursantlarning barchasi qurollarini shay holga keltirgan, yelkalarida yo'lxalta osilgan, ko'zlari esa qandaydir g'azabli yonardi. Buning sababini keyin bildim: hamisha sabal kelib tushsa, o'g'lonlar hatto nigohlarini ham boshqarishga e'tibor qaratar ekan. Chunki chin ko'ngildan bajarilmagan, his etilmagan tuyg'u alaloqibat o'z kuchini yo'qotadi. Buni ustozlar, ha, komandirlar yaxshi biladi.

porox kukunlari akslandi. Lekin ular ko'p o'tmay, kechagi yomg'ir tomchilariga singidi. Nariroqda Raimjonov oyoqlarini yelka kengligida ochib turardi. Uning oldiga bordim. Aziz menga qaramadi.

– Aka, shu qirlar tilga kirganda nimalarni so'zlar ekan, a? – dedi u past ovozda.


– Xatolarni aytardi, – dedim uning chap yelkasiga turtib. – Ehtimol, bobolar mardligini ham kuylashi mumkin.

Keyin yuragim shuv etib ketdi. O'z so'zim qalbimda vahima uyg'otdi. Boisi ko'pdan buyon shu kabi savollar aqlimni band etgandi: haqiqatan ham tog'lar, qoyalar va qirlar-u adirlar tilga kirsas, qaysi davr va qaysi voqealarni bizga aytib bergan bo'lardi? Qiziq, to'g'rimi? Albatta, bu g'alati va miyaga sig'maydigan xayol. Lekin tabiatni eshitmay qo'yganimiz oqibatida undan uzoqlashyapmiz. Borliq esa o'z sirlarini bag'riga joylab, hamon kimsasiz va tashvishli bo'lib ko'rinmoqda. Shu kabi xayollar og'ushida ojiz qoldim.

Uchinchi Renessans g'oyasi

Yangi O'zbekiston YOSHLARI — mamlakat tayanchi

Yangi O'zbekistonning yoshlari mamlakat taraqqiyotining eng muhim strategik tayanchi sifatida shakllanayotgan bugungi davrda jamiyatning barcha sohalarida ularning o'rne va roli tobora oshib bormoqda. Bu jarayon nafaqat demografik ustunlik bilan, balki davlat tomonidan olib borilayotgan tizimli islohotlar, Uchinchi Renessans g'oyasiga asoslangan taraqqiyot strategiyasi va inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosat bilan ham bevosita bog'liqdir.



Yoshlar masalasi bugungi kunda oddiy ijtimoiy qatlam sifatida emas, balki milliy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, innovatsion g'oyalar generatori va kelajakni belgilovchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekiston modelida yoshlar siyosati davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlarni zamonaviy bilim, kasbiy ko'nikma, innovatsion fikrlash va yuksak ma'naviyatga ega shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Uchinchi Renessans g'oyasi tarixiy ildizlarga tayangan holda, yangi ilmiy va madaniy yuksalish davrini yaratishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda yoshlar hal qiluvchi o'rin tutadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlarida ham jamiyat taraqqiyoti aynan ilmga chanqoq, tashabbuskor va intellektual salohiyati yuqori bo'lgan yoshlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar o'z davrda yosh bo'lishiga qaramay, ilm-fan, adabiyot va falsafa rivojiga ulkan hissa qo'shgan va butun insoniyat

tamadduniga ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda ham ana shu tarixiy uzviylikni davom ettirish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ularni global miqyosda raqobatbardosh kuchga aylantirish Yangi O'zbekiston strategiyasining muhim yo'nalishidir.

Yoshlar siyosatining amaliy jihatdan amalga oshirilishi davlat tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlar tizimi orqali ifodalanadi. So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, oliy ta'lim muassasalari sonining oshishi, xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi va raqamli ta'lim platformalarining joriy etilishi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Shu bilan birga, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, startap va innovatsion loyihalarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon yoshlarni faqat iste'molchi emas, balki yaratuvchi, tashabbuskor va iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida inson kapitali eng muhim resursga aylangan bo'lib, ayniqsa yoshlar bu kapitalning eng faol va innovatsion qismi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va kreativ industriyalar rivojlanayotgan bir davrda yoshlarning roli yanada ortib bormoqda. Ular yangi g'oyalarni tez qabul qilishi, texnologiyalarga moslashuvchanligi va kreativ fikrlashi bilan jamiyat rivojiga katta turki bermoqda. O'zbekistonda IT Parklar, startap inkubatorlar va innovatsion markazlarning tashkil etilishi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi, bu esa ularning global iqtisodiyotga integratsiyasini tezlashtirmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi ham Yangi O'zbekiston modelining muhim tarkibiy qismidir. Bugungi kunda yoshlar parlamentlari, turli yoshlar kengashlari va jamoatchilik tashkilotlari orqali ular davlat boshqaruvi va qaror qabul qilish jarayonlarida bevosita ishtirok etmoqda. Bu esa demokratik jarayonlarning chuqurlashishiga va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Yoshlar nafaqat kuzatuvchi, balki jamiyat rivojining faol ishtirokchisiga aylanmoqda, bu esa ularning mas'uliyatini va ijtimoiy rolini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, yoshlar ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yuksalishi lozim bo'lgan eng muhim qatlam hisoblanadi. Milliy qadriyatlar, tarixiy meros, urf-odatlar va vatanparvarlik tuyg'ulari yoshlar ongida mustahkam o'rin egallashi jamiyat barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan ma'naviy tarbiya, madaniy merosga hurmat va milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Global miqyosda raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlarning bilim darajasi, til bilishi, raqamli ko'nikmalari va ilmiy salohiyati davlatning xalqaro mavqeyini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. UNESCO va United Nations tomonidan ishlab chiqilgan global ta'lim va yoshlar rivojlanish dasturlari ham aynan yoshlar salohiyatini oshirishga qaratilgan. Bu esa O'zbekiston yoshlari uchun ham yangi imkoniyatlar yaratib, ularning xalqaro maydonga chiqishiga zamin hozirlamoqda.

Shu bilan birga, yoshlar oldida turgan ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ular bandlik, migratsiya, ta'lim sifati, hududlararo tafovutlar va raqamli tengsizlik kabi masalalarda namoyon bo'ladi. Bu muammolarni hal qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, ularni bartaraf etish orqali yoshlarning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin bo'ladi. Chunki yoshlarning imkoniyatlari kengaysa, butun jamiyatning rivojlanish sur'ati ham tezlashadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston yoshlari nafaqat mamlakatning kelajagi, balki bugungi kundagi eng faol rivojlanish kuchidir. **Uchinchi Renessans** g'oyasi aynan yoshlar salohiyatiga tayanadi va ularni ilm-fan, innovatsiya, ma'naviyat va ijtimoiy faollik orqali yangi tarixiy bosqichga olib chiqishni maqsad qiladi.

Shu bois yoshlar siyosatini izchil davom ettirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va global raqobatga tayyorlash mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Polkovnik
Feruz KAMILOV, Harbiy
xavfsizlik va mudofaa universiteti
kafedra boshlig'i, dotsent**



Ilm maskani

JALOLIDDIN MANGUBERDI LITSEYI – VATANPARVARLAR MAKTABI



Bugungi murakkab va tahliliali dunyo manzarasida yoshlar tarbiyasi masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xurujlari, yot g'oyalar va mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda yosh avlod ongini asrash, ularni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va fidoyilik ruhida tarbiyalash muhim vazifaga aylangan.

Chunki har qanday davlatning kelajagi uning bugun qanday yoshlarni tarbiyalayotgani bilan belgilanadi. Yuksak bilim, mustahkam iroda va vatanparvarlik tuyg'usi uyg'un bo'lgan yoshlar esa yurt tayanchi, millat kelajagining ishonchli egalari hisoblanadi. Shu ma'noda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim olishi, kasb egallashi va Vatana himoyasiga tayyor bo'lib kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

VATANPARVARLIK MAKTABIGA AYLANGAN DARGOH

Ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilayotgan ta'lim muassasalaridan biri – Mudofaa vazirligi tasarrufidagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey. Ushbu dargoh nafaqat chuqur bilim berish, balki yoshlarda intizom, mas'uliyat, liderlik qobiliyati, matonat va Vatanga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilayotgan ta'lim maskani sifatida o'z o'rniga ega.

Bu yerda tahsil olayotgan o'quvchilar zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda harbiy tayyorgarlik sirlarini o'rganib, kelgusida



yoshlarning nazariy bilimlari, jismoniy tayyorgarligi, liderlik qobiliyati hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish uchun muhim maydon vazifasini o'tamoqda.

“AMIR TEMUR VORISLARI”DA MUNOSIB ISHTIROK

Harbiy akademik litseylar o'rtasida tashkil etilgan “Amir Temur vorislari” harbiy sport musobaqasi ana shunday nufuzli bellashuvlardan biri sifatida ahamiyat kasb etdi. Mazkur musobaqa

yoshlarning jismoniy chidamliligi, tezkor va strategik fikrlashi, jamoa bilan ishlash mahorati hamda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olish salohiyatini baholashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Bellashuvda respublikadagi harbiy akademik litseylarning 7 ta sara jamoasi ishtirok etib, jami 140 nafar shijoatli va bilimli yosh o'zaro kuch sinashdi. Musobaqaning o'ziga xos jihati shundaki, unda an'anaviy harbiy tayyorgarlik yo'nalishlari zamonaviy texnologik sinovlar bilan uyg'unlashtirilgan. Bu esa bugungi zamon harbiy kadrlarini tayyorlashda nafaqat jismoniy chidamlilik, balki intellektual salohiyat va texnologik bilimlar ham muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

Xususan, musobaqa avtosport, dron reysing, robototexnika, harbiy sport ko'pkurashi, harbiylashtirilgan estafeta, sport ko'pkurashi hamda voleybol kabi bir qator yo'nalishlarda tashkil etildi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, litsey jamoasi barcha yo'nalishlarda munosib ishtirok etib, kuchli raqobat sharoitida 3-o'rinni egalladi. Bu natija ta'lim muassasasida yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ishlar izchil va samarali yo'lga qo'yilganining yana bir amaliy isboti bo'ldi.

Umuman olganda, Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli, jismonan baquvvat, zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan va Vatana taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda. Bu yerda kamol topayotgan yoshlar kelgusida yurt tinchligi va xavfsizligini ta'minlashdek sharafli vazifani munosib ado etadigan ishonchli avlod bo'lib yetishishi shubhasiz.

Zero Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ana shunday bilimli, jasoratli, tashabbuskor va fidoyi yoshlar mamlakatning eng katta tayanchi hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi harbiy akademik litseyi esa kelajakda yurt tinchligi, xalq farovonligi va davlat ravnaqi uchun xizmat qiladigan munosib avlodni tarbiyalashdek sharafli vazifani munosib ado etib kelmoqda.

Iroda RAHIMOVA,
Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy
akademik litsey o'qituvchisi

Litsey faoliyatida qo'lga kiritilayotgan natijalar esa bu yerda yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya tizimining qanchalar samarali ishlayotganidan dalolat beradi. Xususan, ilk bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichi 98 foizni tashkil etgani ta'lim sifati yuqori darajada ekanining amaliy isbotidir. Shuningdek, bugungi kunda 302 nafar o'quvchi tomonidan umumta'lim fanlari hamda xorijiy tillar bo'yicha jami 374 ta milliy sertifikat qo'lga kiritilgan ularning bilim va salohiyati yanada yuksalib borayotganini ko'rsatadi.

Sport va intellektual yo'nalishlarda ham salmoqli yutuqlarga erishilmoqda. O'quvchilar milliy kurash,



qo'ljangi va boks musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallagan bo'lsa, joriy yilgi mavsumda voleybol sport turi bo'yicha viloyat chempionligini qo'lga kiritdi. Bu esa litseyda jismoniy tayyorgarlikka ham alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Intellektual salohiyatni oshirish borasida ham natijalar e'tiborga molik. Jumladan, o'quvchilar “Zakovat” intellektual o'yinining viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, MDH davlatlari o'rtasida matematika va fizika fanlari bo'yicha o'tkazilgan xalqaro olimpiadada 2-o'rinni egalladi. Bu esa ularning bilim darajasi, tahlilii fikrlashi va ilmiy salohiyati yuqori ekanini namoyon etadi.

INNOVATSION VA TEXNOLOGIYA SARI DADIL QADAMLAR

Amaliy tayyorgarlik yo'nalishida ham litseyda zamonaviy imkoniyatlar yaratilgan. Robototexnika va dron texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan o'quv xonalari, innovatsion mashg'ulotlar yoshlarni zamon talablariga mos bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, o'qituvchi va o'quvchilarning “Besh million sun'iy intellekt yetakchilari” dasturi doirasida sertifikatlariga ega bo'lgani ularning innovatsion texnologiyalarni puxta o'zlashtirishga bo'lgan intilishini yaqqol ifoda etadi.

Albatta, litseyda yo'lga qo'yilgan tizimli ta'lim-tarbiya ishlari o'z samarasini nafaqat o'quv jarayonida, balki turli nufuzli musobaqa va tanlovlarda ham namoyon etmoqda. Bu kabi bellashuvlar



yurt tinchligi va xavfsizligini ta'minlashdek muqaddas burchga munosib kadrlar bo'lib yetishmoqda. Ayni paytda litseyda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash hamda ularning ma'naviy dunyoqarashini boyitishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bejizga davlatimiz rahbari yoshlar tarbiyasi va milliy ruh masalasiga alohida urg'u berayotgani yo'q. “Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi”, degan fikr bugun harbiy ta'lim muassasalari faoliyatida muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

YUKSAK NATIJALAR – SAMARALI TA'LIM IFODASI

Litseyda ilk bor tashkil etilgan “Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning yaqqol misolidir.



Esse



Nemis fashistlari sovet jangchilari orasidan 101 ta o'zbekni ajratib oldi. Ularni uzoq ochlikda saqlab, so'ngra oldilariga bir dona nonni otib yubordi. Nemislarning maqsadi: och askarlar non uchun bir-birini yanchib tashlayotgan lahzalarni tasvirga olib, dunyoga ko'rsatish edi.

Suratga olish uchun kameralar tayyor turardi.

Ammo ular kutgan sharmandali holat ro'y bermadi. O'zbek jangchilari non atrofida aylana bo'lib o'tirishdi. Yoshi kattarog'i nonni tirnoqdek-tirnoqdek qilib, barchaga bo'lib berdi. Oxirida qo'llari bilan yuzlarini silab qo'yishdi.

Bu voqea 1941-yil 27-sentabrda Smolensk ostonasidagi jangda mag'lub bo'lgan 865 nafar sovet jangchilarini "Amersfort" konslageriga olib kelib, orasidan 101 o'zbek jangchisini ajratib olganda bo'lib o'tgan.

Golland jurnalisti Remko Reydingning "Amersfort" konslageri va o'zbek mard jangchilari haqida 20 yil to'plagan materiallaridan.

Toshni sindiradi erkak g'ururi, temirni eritar erkakning ori. Qachonki, eng chekka qishloqda uni mushfiq bir ona har kun qon yig'lab kutayotgan bo'lsa. U tug'ilgan yurt nomi Samarqand bo'lsa. Yigit o'n yetti yoshda bo'lsa.

Ular asir tushgan. Ular xat olish imkoniyatidan mahrum. Ular xat yozish baxtidan mosuvo. Akillab turgan nemis itlari, hatto xayol surishga xalaqit beradi. Haqoratlar, kaltaklashlar, izg'irin ayozda, tosh qotib muzlab yotgan yerda holdan toyguncha emaklatishlar...

101 ASKAR, 101 O'ZBEK

O'n yetti yoshlisining onasi tunlari yig'laydi:

"Teshavoy, yolg'izim eson-omon qaytgin. Meni sendan boshqa hech kimim yo'q. Sen ko'rar ko'zimsan, sensiz ko'rman, basirman. Zulmatda qoldirma o'g'lonim.

Teshavoy mendan xavotir olma. Tuzukman. Bizning Kattaqo'rg'onga ham urush bo'layotgan joylardan yetim bolalarni olib kelishdi. Baraka topkurlar, menga ham ikkita bola berdi. Bittasini Ergash deb chaqiraman, bittasining ismini O'lmas deb chaqiraman. Menga o'rganib qolishgan. Tovug'im bitta tug'sa ham shularga qaynatib beraman. Men ularga rahm qilsam, senga Alloh rahm qilsin. Qishlog'imizdagilar frontga "tishimizning kovagida" asrab yurgan yong'oq, mayizlardan jo'natdik. Sizlarga, albatta yetib boradi, biz bunga juda-juda ishonamiz.

Bitta o'tinchim, sen o'lma! Sen kerak bo'lsa, qush bo'l, kerak bo'lsa,

ajdar bo'l, tulki bo'l, bo'ri bo'l, yo'lbars bo'l! Yolg'iz joningni asra! El-yurt oldida yorug' yuzim bo'lib qaytib kel! Dunyo shunchalar adolatsiz emas. Axir sen yolg'izsan. Sen bittasan, bolam".

Bu ayolning bolasi 16 yoshda edi. Ko'ngilli bo'lib urushga ketgan. Urushda katta yoshlilarning hammasi uni bolam deb, qizlari bori hazilashib kuyov deb, murojaat qilishadi. Teshavoy ularga munosib o'g'il, nasib etsa, urush tugasa, munosib kuyov bo'lishga o'ziga o'zi va'da berar edi.

101 ERKAK, 101 MARD

Ularning bittasi 35 yosh edi. Ismi Azamat. Asli toshkentlik.

Uning to'rtta qizi bor edi. Ismlari: Saodat, Sanobar, Sarvinoz, O'g'iloy. Qizchalarning onasi har kuni erta tongda uyg'otib, yuvuntirib, Qibla tarafa qaratib, shunday duo qildirar edi: "Allohim, otajonimizni omon asragin! Uyimizga shodlik, suyanch, tog' bo'lib qaytib kelsinlar. Otam qop-qop un olib kelsinlar, onam tandir-tandir non yopsinlar. Har birimiz to'ylarimizda aziz otajonimizning poyiga bosh uraylik".

Qizlarning onasi kechalari yig'lab, xayolan jufti haloli bilan gaplashadi: "otasi yaxshi yuribsizmi? Ko'zingizga qarabgina yuribsizmi? Siz sog'-omon qaytib keling. Sizsiz manavi qizlarning ertasi nima bo'ladi? Otasi yo'q sag'irlarni kim orzu qiladi? Otasi yo'q deb, eshigimizga sovchi kelmasa-ya. Otasi bularingiz mendan ham ko'p sizni yaxshi ko'rar ekan. Yashirib-yashirib yig'lab yurishadi. O'g'iloyingiz ichikib, kasal bo'lib qoldi. Omonoy ammamiz qo'liyengil tabib-da olib borgan edim "Azamatjonning oq yaktagini qizingizni yostig'ini tagiga qo'yib qo'ying, hidlasa tuzalib ketadi" dedi. Yaktagingizni hidlatib, tuzatib oldim. Oh, bo'yuringizga o'lay otasi, tezroqqina dushmanni yer yutsin-u uyga qaytib keling. Ro'zgoringizga o'zingiz egalik qiling".

Ular bittasining ismi Qodirali edi. Asli namanganlik bu yigit 28 yoshlar chamasi edi. Yurish-turishidan ajib bir qudrat taralib turgan bu insondan atrofdegilar quvvat olardi. Qaqshatqich janglardan so'ng bir nafas tin olganda ham u "Bilasizlarmi, yigitlar, hademay, fashist zang'arni yer tishlatamiz, O'zbekistonjonga qaytamiz. O'shanda men 10 gektar yer olaman. O'sha yerni shaftolizor qilaman. Sizlarni ikki marta Namanganga chaqiraman. Birinchisi bahorda, shaftolizorim pushtirang gulga burkanganida. Ikkinchisi yozning oxirlarida, shaftolilarim hil-hil pishganda.

O'ZBEK BARDOSHI

Shaftolini shundoq po'stini archaman-da, sharbatini oqizib, qo'llaringa tutqizaman. O, ofarin, deysizlar do'stlarim. Albatta, shunday qilaman!"

Qodirali asirga tushmasdan oldin, negadir opasiga shunday maktub yozdi.

"Opa sog'-salomat yuribsizmi? Onamni asranglar. Otam o'tgandan so'ng o'zlarini ancha oldirib qo'ydi. Opa, sizdan bitta iltimosim bor. Avvalo, men urushdan qahramon bo'lib qaytaman. Bilasiz, sinfdoshim Oysarani sevaman. U ham meni sevadi. Biz ahd-u paymon qilganmiz. Mabodo, opajon, mabodo, buni urush deydilar, menga biror gap bo'lsa, keling deb atalgan, ro'mollarni, liboslarni sandiqdan olib, Oysaraga beringlar. Sizdan iltimos, bu gap oramizda qolsin".

Maktub uning opasiga yetib kelgandan so'ng Qodiralining batalyoni asirga tushdi. Aloqa uzildi.

101 BAHOR, 101 QISH

Bahor misol bu yigitlarning tug'ilishi olamga tarovat bag'ishladi. Ular qalblarda mangu bahor va mangu armon bo'lib yashab qoldilar. Ulardan birining ismi Abdunazar edi. Abdunazar shoir bo'lib, safdoshlari uning she'rilarini sevgan yorlariga ko'chirib jo'natardi. Shoir jizzaxlik edi.

Safdoshlari uni "Shoirlarning zo'ri" deb chaqirishardi.

Gohi do'stlari bo'yi ikki metr keladigan, xushsurat bu yigitga boqib, "Shoirlar shunday chiroyli bo'lishi kerak-da", deb qo'yishar edi.

Seni derman, seni derman,
Yemasam ham bir parcha non.
Seni derman, seni derman,
O'zbekiston, O'zbekiston!

Shoirlarning zo'ri uning she'rini 101 yigitning bari yod olgan edi. Goh-goh kechalari bab-barobar shu she'rni pichirlab aytishardi.

Maktub yozilayotgan kuni u ukasi Beknazarga maktub yozdi:

"Maktubim kabutar misoli uchib, yetib borsinki, ul go'zal Jizzaxda mening o'rmimni bildirmay yurgan mehribon ukajonimga.

Assalom Bek. Uydagilar sog'-salomat yuribdilarmi?"

Mendan onajonim, otajonim, momojonim, singillarim: Sharapatga, Sapiyaga, Samiyaga, qo'shnilar va qarindoshlarga salom aytgin. Maktabimdagi o'qituvchilarimga ham salom aytgin. Bek, ukajon, sen endi katta bola bo'lib qolding. Senga bir sir aytaman. Qo'shni qishloqdagi Shopo'lat shopir biz bilan bir batalyonda edi. Qattiq jangda ustimizdan nemis samolyotlari bomba tashladi. Samolyotlardan biri Shopo'lat aka boshqarib borayotgan mashinaning ustiga bomba tashlagan. Otishmalar tugagach, ularning mashinasining o'rnida qop-qora kul qoldi. Mashinadagi askarlar ham, Shopo'lat aka ham rahmatli bo'lgan. Shu Shopo'lat aka bir kuni menga bir hovuch oq qand berib, "Shoirlarni zo'ri manavi oq qandlarni yaxshi ko'rgan o'rtoqlaring bilan yeb ol. Menga buni bir ukrain kampir minnatdorlik uchun beruvdi. Shuni senga ilindim ukavoy" deb berib ketuvdi. Men batalyonimizdagi bolalar bilan qandlarni yedim. Endi menga uning oq qandlari qiyomat qarzdek bo'lib qoldi. Uka, sendan iltimos, Shopo'lat akaning uyiga bir nimani bahona qilib, nonmi, mevami, sutmi beringlar. Kuzda uyining tomini suvash ishlariga o'zing bosh bo'l. Seni quchib qoluvchi akang Abdunazar".

101 BAYRAM, 101 TO'Y

Ularning orasida to'y bo'lganiga bir oy ham to'lmagan G'aybullo degan yigit bor edi. Buxorolik bu yigit qo'lida oliy ma'lumotli o'qituvchi degan diplomni olib kelib, maktabga ishga joylashdi. U Vobkentning eng go'zal qiziga uylandi. Qizning ismi Sanobar bo'lib, hamshira edi. Nuriddin hojining bu go'zal qizini u 1-sinf o'quvchilarini ro'yxatga olish uchun borganda ko'rgan. Qizning qishlog'ini Kumushkent deydilar. G'aybullo ko'chama-ko'cha yurib, bu yil maktabga boradigan 7 yoshli



bolalarni ro'yxatga olib, tug'ilganlik guvohnomalarini raqamidan ko'chirma qilib, bolaning uyidagilarga tushuncha berar edi. Shu yurishda u naqshinkor eshiklardan birini taqillatdi. Eshikni faqat ertaklarda uchraydigan pariruxsor ochdi. G'aybullo qizni ko'rdi-yu nima uchun kelganini yodidan chiqarib, qotib qoldi.

Qizning salomini eshitmadi. G'aybullo qizga "Siz bu yerda nima qilib yuribsiz?" dedi. Qiz "Men bu yerda yashayman, hoji otaning qiziman. Sizga otam kerakmilar? Otam masjidga ketganlar" dedi. – Otangiz kerak emas. Maktabdan keluvdim, 7 yoshli, maktabga borishga loyiq bolalarning ro'yxatini olib yuribman.

– Yo'q, 7 yoshli ukam yo'q. Eng kenjasi menman.

– Siz nima ish qilaisiz?

– Men shifoxonada hamshiraman.

– Kasal bo'lib borsak, sizni topamanmi shifoxonadan?

– Avvalambor, kasal bo'lmang.

Tobingiz qochsa, kelavering, davolash vazifamiz.

O'sha kuni o'quvchilarni ro'yxatga olishga yuborayotgan maktab direktori "G'aybulloboy boravering. Xotin-qiz o'qituvchilar eshikma-eshik yurmasin. O'zingiz eplab keling. Zora, bir eshikni ochsangiz, baxt qushingiz pir etib boshingizga qo'na qolsa" degan edi. Farishtalar omin degani rost bo'lsin. G'aybulloni kayfi chog'.

Ammo ishlar u o'ylaganchalik oson kechmadi. Shifoxona bosh vrachi qizning amakisi ekan. Shifoxonada uchrashishning iloji yo'q. Otingdan aylanay, Kumushkent qishlog'ida gaplashish gap-so'zni ko'paytiradi. Xullas, G'aybullo qizning uyiga sovchilarning zo'ri – To'ra chavandozni yubordi. To'ra chavandoz ikkinchi borishda ishni bitirdi.

G'aybullo, otingdan aylanay, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy tavallud topgan qishloq Anjirbog'da yashaydi. Bir oy ichida u to'y jo'natib, kuyovnavkarlari bilan Kumushkentga bordi. Sozandalarning doirasi va Shodi surnaychining surnayi ostida oq otda yor-yorlar bilan Nuriddin hojinikiga kirib borishdi. Ota-onalar roziligida nikoh o'qildi. Shodiyona to'y bo'ldi. Kelin-kuyovning yo'llarini yoritgin uchun mash'alalar yoqib, kelinni Anjirbog' qishlog'iga olib kelishdi. O'sha kecha falakda oy ham olamni sutdek yoritib turdi. G'aybulloning ko'nglida bitta tashvish – shu go'zal meni sevarmikin? – degan o'y. To'y tugagach, yangalar rosa ismi-rasmini qilishdi. Oynaga qaratish, kelinning maxsisini tortish, shirinliklar yedirish. G'aybullo bosh egib turgan kelinga "Menga bir qarab qo'ying, sizga savolim bor edi" dedi. "Savolingizni ayting" dedi-yu oq ro'molini sal surganday bo'ldi. Uning jamoli oldida derazadan mo'ralayotgan oy ham xijolatda edi.


Bu buncha chiroyli bo'lmasa! Nuriddin hoji Allohimdan so'rab olgan farishtamikin, bu! Kuyov bir lahza qotib qoldi va yana o'sha, qizni ilk daf'a ko'rgan savolni berdi.

– Siz bu yerda nima qilib yuribsiz? Kelin javob berdi.

– Men endi bu yerda yashayman.

Kelin yengining uchidan shoyi ro'molcha chiqarib, kuyovga uzatdi. Kuyov sekin ro'molchani ochdi.

Unda bir-biriga qarab uchayotgan ikki kabutar aks ettirilgan. Kabutarlar



ostida: G' + S. 1941-yil 15-iyun deb yozilgan edi.

Kuyov ro'molchani qayta-qayta o'par ekan, "Bu ro'molchani men uchun o'z qo'llaringiz bilan tikdingizmi?" deb so'radi.

Kelin "Ha, siz uchun o'z qo'llarim bilan" deb javob berdi. Kuyov endi kelinning qo'llaridan o'pish uchun o'zida jur'at topdi.

1941-yil 2-avgust kuni Anjirbog' qishlog'idan bir guruh yigitlar urushga jo'nab ketdi. Ularning orasida qishloq maktabi o'qituvchisi G'aybullo Sattorov ham bor edi.

1941-yili Buxoroning Anjirbog' qishloq ahli aziz o'g'lonlarini urushga kuzatishga chiqdi. Kimdir qo'lida chaqalog'i, kimdir etagini ushlab turgan bolalari bilan zor qaqshardi. G'aybullo bilan Sanobar bir-biriga termilganicha ko'zyoshlarini artib ulgurishmadi. Yosh kelin-kuyov bir-birining yelkasiga bosh qo'yishga atrofdagilardan uyalishdi.

– Meni kutasizmi?

– Har kun, har lahza intizor kutaman.

Sanobar qo'lidagi o'sha ro'molchani yana sevar yoriga uzatdi.

Yuk mashinasiga chiqar ekan G'aybullo ro'molchani mahkam siqib, bag'riga bosdi. Ularning asal oyi hali tugamagan edi. Ular boshqa ko'rishmadilar.

*Otingdan aylanay Buxoro,
Otingdan aylanay Anjirbog'.
Otingdan aylanay Kumushkent,
Otingni aytganda ko'nglim tog'.*

*Tushmasin yorimga yot nigoh,
Oy nuri ro'molin tortib qo'y.
Hijronda zor bo'lib yig'lasa,
Ko'zidan yoshlarin artib qo'y.*



101 YIGIT. 101 DARYO

Ular orasida Amudaryoning qirg'og'ida joylashgan jannat misol yurt mang'itlik Yerniyaz degan yigit ham bor. Aytishlariga qaraganda, Yerniyaz Samarqanddagi katta o'qishlardan birini tugatib, "Qilichboy" degan qishlog'ida ketayotgan katta qurilishda boshliq ekan. Juda kamgap bu yigit rus tilini yaxshi bilgani uchun ham aloqachi edi. Yerniyaz faqat aloqachi emas, zarur paytda hamma qatori jangga kirar edi. Hammaning yodida, bir kuni og'ir jang ketdi. Pulemyotlarning o'q dorisi tugab qoldi. Talafot ko'p, sanitarlar yaradorlarni jang maydonidan tashish bilan ovora. Barcha jangchilar juda toliqqan. Shunda komandir Yerniyazga qarashi bilan u "O'rtoq komandir, ruxsat eting, men borib, o'q-dorilarni olib kelaman" dedi. Komandir ruxsat berdi. Aloqachi Yerniyazboy Yusupov dushman otayotgan o'q yomg'irlari aro mo'ljal sari emaklab ketdi. Xayriyat, u o'q-dorilar solingan qutilarni topdi va ikki qutini yelkalari osha ipga bog'lab, tortib kela boshladi. O'q-dorilarni olib kelayotgan Yerniyazni nemislar sezib qolib, o'qqa tuta boshladi. Yerniyaz emaklaydi, o'q yomg'irlari vizillab boshi uzra uchadi. Yerniyaz yerga qapishib, bir nafas tin oladi. Uning qo'llaridan tizillab qon oqadi. Lablaridan tuproq aralash qon sizadi. U uch marta vujudida jiz-jiz degan og'riqni sezdi. Hushidan ketdi.

Tezda o'ziga keldi. Xayriyat tirik ekan. Yerniyaz yana oldinga intiladi. Fashist o'qlari yuborayotgan ajal uni yosh joni atrofida aylanadi. Nemislar uni o'ldi deb, otishni to'xtatishi bilan Yerniyaz olg'a intiladi. U o'q-dorilarni komandirga olib kelib topshirdi.

Sanitarlar Yerniyazni handaqqa qarab ko'tarib ketishdi. Uning qo'lini, oyog'ini, yelkasini o'q yalab, kuydirib o'tgan edi. "Hechqisi yo'q, to'ygacha tuzalib ketasan" dedi hazillashib sanitar.

Batalyon mo'ljalidagi tepalikni qo'lga kiritdi. Nemis chekindi.

Yarim tunda Yerniyazning onasi cho'chib uyg'ondi. Tushiga Yerniyazi kiribdi. Bahor emish, katta qora quzg'un bola Yerniyazning boshida aylanar emish. Yerniyaz quzg'unni ko'rmay yashil qirda qizg'aldoq terayotgan emish. Ona bolasining boshida aylanayotgan quzg'unga tosh ota boshlabdi. U bor ovozdagi "Yerniyaz, qoch bolam! Yerniyaz, yashirin bolam!" deya faryod chekarmish. Shunda Yerniyaz onasini eshitibdi. Qo'lidagi qizg'aldoqlarni quzg'unga otibdi. Qizg'aldoqlar metindek qattiq emishki, quzg'unga tegib, uni ilma-teshik qilib, yerga qulatibdi. Yerniyaz "Ena qo'rqma, men tirikman" deb onasining oldiga kelibdi. Negadir uchta qonli qizg'aldoq Yerniyazning qo'lida qolgan emish. "Yerniyaz tashla bu qizg'aldoqlarni, tashla, qara qon tegibdi" deya ona qaltirab o'midan turib ketibdi. Ertalab tushini eshitgan qaynonasi, bu tushning ta'biri yaxshi ekanini tushuntirdi.

– Ena, sizni dono kampir – deb hamma e'zozlaydi. Ayting, Yerniyazim eson-omon qaytib keladi-ya. Men usiz yashaganimdan ko'ra, yerga yopishib ketay, ena. Keladi-ya, mening botir bolam, keladi-ya?!

– Mening Yerniyazimni kelmaydi, deb senga kim aytdi. Hali ko'rasan, u qaytib keladi. Amudaryoning bo'yida maktablar, bog'chalar, uylar quradi. Qutli qadamining ortidan qoraqalpog'im bo'stonga aylanadi.

– Nafasingdan aylanay ena!

Mang'itda ikki mushtipar bir-birini shunday ovutib tong ottiradi.

(Navoiylik jurnalist Jonibek Shuhratovning jasur jangchi bobolarimiz haqida aniqlagan materiallaridan foydanildi).

(Davomi bor)

**Zulfiya MO'MINOVA,
shoira, O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi**

Qutlug' sana

E'TIROF – ISHONCH VA MAS'ULIYAT DEMAK

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida o'zining munosib o'rni, boy tarixi va mustahkam an'analari bilan ajralib turadigan Sharqiy harbiy okrug tashkil etilgan kun munosabati bilan tantanali bayram tadbiri tashkil etildi. Vatan himoyasi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan o'g'lonlarimizga bo'lgan hurmat va e'tiborni yana bir bor namoyon etgan tadbir ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Unda harbiy okrug qo'mondonligi vakillari, hududlardagi harbiy qismlar mutasaddilari videokonferens-aloqa orqali ishtirok etdi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda tizimda uzoq yillar samarali xizmat qilgan tajribali mutaxassislar ham ushbu tantanali yig'inda faol qatnashdilar. Bu esa avlodlar o'rtasidagi uzviylik, tajriba almashinuvi va harbiy



an'analarning davomiyligini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Tadbir davomida milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar haqida atroflıcha ma'lumotlar berildi. Shu bilan birga, Sharqiy harbiy okrugning tashkil etilishi, shakllanish bosqıchlari, uning boy va ibratli tarixi, mustahkam jangovar an'analari haqida ham batafsil so'z yuritildi.

Tadbirida Qurolli Kuchlar faxriylari ham so'zga chiqib, o'zlarining xizmat faoliyati davomida

orttirgan tajribalari, boshdan kechirgan sinovlari va bugungi tinch hayot qadri haqida samimiy fikrlarini bildirdi. Ularning hayotiy misollari yosh harbiy xizmatchilar uchun chinakam saboq bo'lib xizmat qildi.

Tantanali yig'in davomida harbiy xizmatchilarning

erishayotgan yutuqlari yana bir bor e'tirof etildi. Zero bayram munosabati bilan xizmat vazifalarini sidqidildan, fidoyilik bilan bajarayotgan bir guruh harbiylar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari navbatdagi harbiy unvon, faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Albatta, ushbu e'tirof tabriklanganlarni yanada yuqori marralarni zabt etishga undashi ayni haqiqat.

Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati



Qahramonlik unutilmaydi

MILLAT FIDOYILARIGA *ehtirof*

Yurtimizda har yili 9-may – Xofira va qadrlash kuni keng nishonlanib, bu sana xalqimizning tinchlik va osoyishtalikni asrashga bo'lgan yuksak e'tibori, mustaqillikni mustahkamlash yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning yorqin ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Sana munosabati bilan mamlakatimiz bo'ylab "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, uch avlod muloqotlari, ijodiy kechalar, ko'rik-tanlovlar hamda ommaviy sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

Surxondaryo viloyatining Termiz shahri, Muzrabod va Boysun tumanlarida ham ana shunday uchrashuv va ma'naviy-ma'rifiy



loyihalar tashkil etildi. Xususan, "Ajdodlar izidan" harbiy-tarixiy jamiyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda o'tkazgan ushbu tashabbuslari alohida e'tiborga loyiq.

Mazkur uchrashuvlar 2000–2001-yillarda Sariosiyo voqealari davomida Vatan himoyasi yo'lida mardlarcha halok bo'lgan serjant Muhiddin Eshtemirov, muzrabodlik katta leytenant Chori Rajabov hamda boysunlik serjant Mashrab Jo'rayev tahsil olgan umumta'lim maktablarida bo'lib o'tdi.

Uchrashuvlar doirasida Mudofaa vazirligi tizimida faoliyat yuritib, xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hayoti, jasorati va fidoyiligi haqida hikoya qiluvchi "Millat fidoyilari" nomli kitob-albom keng jamoatchilikka taqdim etilib, marhumlar tahsil olgan maktablar kutubxonalariga tantanali ravishda topshirildi.

Mazkur jarayonlarda "Ajdodlar izidan" harbiy-tarixiy jamiyati vakillari, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'mondonligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Surxondaryo viloyati bo'limlari mutasaddilari, o'quvchi-yoshlar hamda marhum harbiy xizmatchilarning oila a'zolari ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar tomonidan yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligi yo'lida jonfido qilgan qahramonlarning jasorati hech qachon unutilmasligi, ularning yorqin xotirasi har bir yurtdoshimiz qalbida abadiy yashashi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, "Millat fidoyilari" kitob-albomi yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda mardlik, jasorat va fidoyilik fazilatlarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilayotgani qayd etildi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

Chegara qo'shinlarida

Ibratli oila - jamiyat ko'zgusi



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalarida yurt himoyachilari hamda ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish maqsadida, turli ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ko'ngilochar tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Xususan, "Yangi O'zbekistonning ibratli harbiy oilasi" shiori ostidagi ko'rik-tanlov ham jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilalarni mustahkamlash, ularda har jihatdan yetuk, barkamol hamda asl vatanparvar avlodlar voyaga yetishini ta'minlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.



Mazkur tanlovning viloyat bosqichida yuqori natijani qo'lga kiritgan harbiy oilalar Respublika bosqichida bellashish uchun DXX Chegara qo'shinlari o'z mondonligida jam bo'ldi.

Dastlabki shart "Tanishtiruv" deb nomlanib, unda qatnashchilar o'z oilalarini she'riy tarzda, kuy-qo'shiq, raqslar va videolavhalar yordamida batafsil tanishtirishlari talab etildi. Ushbu shartni o'zaro ahillik va hamjihatlikda mahorat bilan uddalagan ishtirokchilar, tanlovning ikkinchi shartida kundalik hayotda uchrab turadigan turli illatlar, ijtimoiy tarmoqlarning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning noxush oqibatlarini sahna ko'rinishlari orqali namoyish etib berdi. Mazkur jarayonda oila a'zolarining iste'dodi, uyushqoqligi, ayniqsa sahna ko'rinishlarida farzandlarning ishonarli tarzda chiqishlari barchaga birdek manzur bo'ldi.

Albatta, oilada keng dunyoqarash shakllangani, bilim, salohiyat va tafakkur yuqori darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, tanlov ishtirokchilarining zukkoligi va salohiyatini sinovdan o'tkazuvchi uchinchi shart

"Bilimdonlar bahsi" deb nomlanib, unda ishtirokchilar ijtimoiy, siyosiy va hayotiy mavzular bo'yicha tayyorlangan savollarga javob berdi.

Ko'rik-tanlovning ikkinchi kuni "Toshkent dengizi" dam olish maskanida tashkil etilib, harbiy oilalar "Sport - salomatlik garovi" shiori ostidagi estafeta, darts va to'pni savatga tushirish shartlarida o'zaro bellashdi. Ushbu shartlar davomida oilalarning hamjihatligi, epchilligi va chaqqonligi sinovdan o'tkazildi.

Sport musobaqalari yakuniga yetgach, tanlovning so'nggi "Oshga marhamat" shartiga start berildi. Ushbu shartda oilalarning pazandaligi va saranjom-sarishtaliklari namoyon bo'ldi.

Tadbir doirasida taniqli adib O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" va "Dunyoning ishlari" asarlari asosida "Kitobxon ona - 2026", shuningdek harbiy xizmatchilarning olis chegaraoldi hududlarida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qisqa muddatli guruhlarida tarbiyachi sifatida faoliyat yuritayotgan turmush o'rtoqlari o'rtasida "Ilg'or tarbiyachi - 2026" tanlovlari ham tashkil etildi.

Uch kun davom etgan ushbu ko'rik-tanlovning taqdirlash marosimi tantanali tarzda o'tkazilib, unda so'z olganlar bu kabi madaniy tadbirlar harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari o'rtasida sog'lom muhitni ta'minlashda, shuningdek keng dunyoqarash va tafakkurga ega barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslarning yakuniy natijalariga ko'ra, faxrli 3-o'rinni Qashqadaryo viloyatidan qatnashgan O'razbayevlar oilasi, 2-o'rinni Andijon viloyatidan kelgan Begimovlar oilasi, 1-o'rinni esa

Toshkent viloyatidan ishtirok etgan Mamasodiqovlar oilasi egallab, "Yangi O'zbekistonning eng ibratli harbiy oilasi" deya e'tirof etildi.

Tadbirning badiiy qismida taniqli san'atkorlar hamda DXX Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Yakunda ishtirokchilar "Chegara qo'shinlari tarixi muzeyi"da bo'lib, unda sohaning o'tmishi va taraqqiyot bosqichlariga oid ko'plab yangi ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



O'tmish yodi

Bobomning akasi urushga ketib, qaytib kelmagan. Bedarak yo'qolgan. Otam otasidan eshitganlari bo'yicha aytadigan bo'lsam, "yelkalari keng, ko'zlari katta-katta, shoirtabiat odam" bo'lganlar. To'ylarda do'mbira chertib terma boshlasa, ovozidan yetti qishloq odamlari ham to'p-to'p bo'lib kelishar ekan.

MENING QAHRAMONIM

"Hali yigirmaga to'lib ulgurmagan yigitcha qishloqning mardikoriga aylanib qolgan", deydi otam. To'yimi, marakami odamlar kelib, "Abdusattor, sen chaqirsang, eshitmagan odam qolmaydi meni to'yimga jarchilik qilib ber", deb kelishar ekan. Abdusattor bobodan qolgan do'mbira haqida qishloqda ko'p so'zlar yurardi. "Sho'rlikdan keyin avlodida birov unga egalik chiqmadi, qo'lga qalam olib, to'rt misra she'r yozib, do'mbira torlariga jo'r qilib chertadigan bir odam kelsa-yu sho'rlikning ruhi shod bo'lsa", deb ko'ziga yosh olardi otam. Rostiyam ortidan chirog'ini yoqqulik na farzandi, na ayoli qolgan, ayni 19 yoshida urushga ketganicha qaytmagan.

Kecha yomon tush ko'rib uyg'onib ketdim, balki bu tushini yomon deyish to'g'ri bo'lmas. Qo'rqib uyg'ondim. Bedarak yo'qolgan Abdusattor bobo baland tog'ning boshida turib do'mbira chertayotganmish. Bobomni ko'rmaganman, otam ham ko'rmagan, negadir tushimda shu Abdusattor bobo degan ishonch bor edi. Men o'ylayman, "odamlar aytganicha bor ekan", bobomning qo'lidagi do'mbira bulbul misol xonish aylardi. Uyg'oq holimda hech bunaqa ohangni tinglamaganman. Qandaydir ilohiy kuch bor edi har chertimda. Chorlov bor edi. Bobom tomon yaqinlashmoqchi bo'laman, qoyalarga tirmashaman, peshonamdan oqayotgan ter ko'ksimga urilib pastga qarab sochilib ketadi. Bir payt yerga qarasam, oyog'im tagi bepoyon tubsizlik, qo'llarimda esa mador qolmagan. Abdusattor boboning do'mbirasidan taralayotgan kuygina menga quvvat berib turardi. Qancha yaqinlashganim sari tog' uzoqlashayotganini sezib qoldim, meni chorlayotgan ohang girdobmi, murodmi, bilmayman. Qoyaga tirmashgan boboning yuziga termilaman. Kimga o'xshashini bilishni istayman, balki akalaringga o'xshar, balki mengadir. O'sha payt shu xayollar ham ko'nglimdan o'tgani yodimda. Har holda avlodning qanday odam bo'lgani tushmi, o'ngmi qiziq-da. Bobomning yoniga yetdim, do'mbirasini qo'limga tutqazdi-yu olis ufqlarga singib ketdi. Abdusattor bobo otam aytganidek, yelkalari keng, ochiq chehra odam ekan, bir qarashda to'rtinchi akamning kelbatini beradi. Yon-atrofga qarasam, men chirmashib chiqqan na qoya, na tog' bor. Boshadog'i ko'rinmagan kengliklar, yamyashil maysalar turibdi. Tushimning shu joyiga kelganda ko'zimdan uyqum uchdi. Uyg'onib ketdim. Alahsirashga o'xshagan bir qo'rquv ko'nglimni asir etib oldi. Tonggacha ko'zimga uyqu kelmay Xudo rahmati bobom haqida o'ylab chiqdim.

Yoshligimda bobom o'lmagan, urushga ketgan-u yurtini topolmay qaytib kelolmay qolgan, deb o'ylab yurardim. Go'yo, olis yurtlarda bizning avlodimiz yashaydi. Qachondir farzandlari otamizning qarindoshlari shu yerda yashagan ekan deb qidirib keladigandek bo'lib tuyulaverardi. Ba'zida yolg'ondan bolalarga mening xeshlarim judayam uzoqlarda yashashini aytib maqtanardim. Bola ekanman-da, maktabda qahramonlar haqida so'z ketganda birov otasi haqida yana birov ulug' Temur haqida gapirardi. Men esa hatto tushimda ham ko'rmagan, urushga ketib qaytib kelmagan bobom haqida gapirib o'tirardim. Abdusattor bobo mening qahramonim edi.

Mana yillar o'tdi, ulg'ayib hammasini tushunib yetgandek bo'ldim. Sho'r qismatining zo'ridan halok bo'lib ketgan, izsiz yo'qolgan

bobomni bugun ham yodimga oldim-da, biroz yig'lagan kishi bo'ldim. Aslini olganda xotiralar uyg'onishiga bir voqea sabab bo'ldi.

Hamkasbim, Asror aka odatdagi tadbirlardan biridan qaytib keldi, akaning ko'zidagi hayratni ko'rsangiz, ko'nglingiz yorishib ketadi. Salomalikdan so'ng "Keldi, Muhammadali, keldi", deydi. "Nima keldi, aka", desam, "Abdulla Dadaboyev" deydi. Men Abdulla Dadaboyev kim ekan deb o'ylayman, qaysi tanishim ekan deb. Akaning oldida uyalib qolmay deb ancha vaqt Abdulla ismli tanishlarimni sarhisob qilib chiqdim. Men tanigan Abdullalarni hamkasbim tanimaydi, unda nega menga unaqa dedi, deb o'ylayman. Axiyri, "Aka, uzr, lekin qaysi Abdulla haqida gapirdingiz? "Abdulla keldi", deganingizdan beri "qaysi Abdulla kelibdi ekan" deb o'ylab o'tiribman. "Abdulla Dadaboyev keldi, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan, bedarak yo'qolgan qahramonimiz o'z yurtiga qaytdi" deydi.

"G'alaba bog'i"ning tashkil etilishi, Belarus Respublikasi, Ukraina, Rossiya Federatsiyasidagi qidiruv guruhlarini bilan yo'lga qo'yilgan hamkorliklar natijasi sifatida Shavkat

Qoriyev, Arslon Kabulbekov kabi o'nlab hamyurtlarimizning taqdiri haqidagi haqiqatlar aniqlandi. 160 ming inson taqdirini aniqlash somon orasidan igna qidirishdek murakkab ish. Shuning uchun ularning sonini hozircha o'nlab deb ko'rsatishga majburbiz. Kelajakda minglab, yuz minglab taqdiriga oydinlik kiritiladi degan umid ham yo'q emas. 2025-yilning sentabrida ularning soni yana bittaga ko'paydi. Gomel kadetlar bilim yurtida faoliyat olib borayotgan "Alvon pogonlar" qidiruv guruhi 1941-yil 15-avgust kuni Gomel viloyati Buda-Koshelyovo tumani Rogin va Negovka qishlog'i oralig'ida kechgan jangda halok bo'lgan farg'onalik Abdulla Dadaboyevning jasadi qoldiqlari hamda unga tegishli medalyonni topishdi.

27-sentabrdan 28-sentabrga o'tar kechasi Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida Abdulla Dadaboyev jasadi qoldiqlari solingan quti faxriylar, harbiy xizmatchilar, harbiy orkestr, faxriy qorovul tomonidan o'ziga xos hurmat-ehtirom bilan kutib olindi. Yuk qabul qilish bo'limi (*karg'o*)da harbiy orkestr va faxriy qorovulning bo'linmasini ko'rgan aeroport ishchilari hayron-ulo. Gap nima haqida ekanini aytganimizda ko'zlarida yosh bilan keyingi jarayonlarni telefonlarida videoga ola boshlashdi. 81 yil tuproq ostida qolib ketgan haqiqat, tuproqqa ko'milgan sog'inch o'zbek o'g'loni tug'ilib o'sgan zaminga qaytdi. Urushdan tirik qaytishni orzu qilgan, sog'inchdan o'rtangan qalbi bo'lmasa-da, uning ruhi ana shu tarzda Vatanga kirib keldi. O'sha kuniyoq jangchi Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani, "Davlatbotir" qishlog'idagi qabristonga yuksak ehtirom bilan dafn etildi".

Asror aka yonib gapirib beradi. Bir vatandoshning 81 yil deganda o'zi tirik qaytmagan bo'lsa ham jasadi Vatanga tuprog'iga qaytishini tasavvur qilib ko'ring-a. Bu suhbatlardan so'ng ko'nglimda qandaydir umid yalt etgandek bo'ldi. Go'yo qidiruvchilar bir kuni mening bobomni ham Vatanga hech bo'lmasa suyaklarini bo'lsa ham qaytaradi deb o'yladim.

Hali muhabbatning totini tatib ulgurmagan, biror suluv qizning sochlariga qo'l tekkizmagan yigitlar... Ularning orzulari, qo'shiqlari, aytilmagan she'rlari - hammasi urush degan balo ichida qolib ketgan. Oting o'chgur, urush... U faqat odamlarni emas, balki ularning kelajagini, iste'dodini, tug'ilmagan avlodlarini ham yutib yuborgan. Qanchadan qancha Abdusattorlar, Abdullalar shu yo'sinda bedarak ketgan.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Matonat timsollari

Ikkinchi jahon urushida yozilgan xatlardan sog'inch va izfirob hidi ufurib turadi. Satrlar ortida inson taqdiri, bir oilaning ko'zyoshlari pinhon yashiringan bo'ladi.

"G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasidagi "Shon-sharaf" davlat muzeyida bo'lganimda, ana shunday maktublar dastasi bilan tanishdim.

Ko'rinib turibdiki, jangdagi vatandoshlarimiz frontdagi haqiqiy vaziyatni ochiq bayon etishi mumkin emas edi. Agar askarlardan biri vahimaga tushib yoki frontdagi sharoitni ochiqchasiga yozib yuborsa, bunday xat manziliga yetmas, balki uning muallifi ham jiddiy xavf ostida qolardi. Shu bois bir qarashda oddiy ko'ringan uchburchak shakldagi xat ichida butun boshli dard, yashirin sirlar mujassam edi.

Frontdan kelgan har bir xatda askarning o'z yaqinlarini asrash, ularni tashvishga qo'ymaslik istagi yaqqol sezilardi. Har bir askar xatida o'z Vatani, uyini, yaqinlarini qo'msash kayfiyati yaqqol seziladi.

"Men yaxshiman, xavotir olmanglar, sizlarni sog'indim, tez orada qaytaman".

Yana shunday satrlar bot-bot uchraydi:

"Bolalarimning baxtiga o'lmasdan yarador bo'lib qoldim, Xudoga shukur!"

Ayrim xatlar esa hech qachon o'z manziliga yetib bormagan. Ular yo'lda yo'qolgan, ba'zilari esa jang maydonida qolib ketgan. Eng achinarlisi, ayrim maktublar askar halok bo'lganidan keyin topilgan yoki umuman topilmagan. Shu bilan birga, uyda qolgan ot-onalar, turmush o'rtoqlar va farzandlar umid bilan

kutishda davom etgan. Ular har kuni eshikka termilib, pochta kelarmikan deya intizor bo'lishardi. Ammo ba'zi eshiklar hech qachon taqillamasdi.

Ayrim maktublarda askarlar frontdagi janglar haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tadi. Masalan, 1944-yili oktabr oyida bo'lib o'tgan jang haqida yozilgan xatda jangchi 17 nafar dushman askarini snayper yordamida yo'q qilganini ma'lum qiladi.

Ma'lumki, frontda qahramonlik ko'rsatgan askarlar o'z xizmatlari uchun munosib ravishda taqdirlanib borgan. Ular orasida o'sha paytda yuksak obro' sanalgan partiyaga nomzodlikka qabul qilinganlar, orden va medallar bilan mukofotlanganlar ham bo'lgan.

Askarlarga pul mukofotlari ham berilgan va ular bu mablag'larni, hatto eng og'ir sharoitlarda ham, o'z oilalariga

yuborishga harakat qilgan. Frontdagi barcha mashaqqatlarga qaramay, oilasining tirikchiligi haqida qayg'urishidan askarning naqadar oilaparvar ekanini chuqur his qilamiz.


Har bir kelgan xat bayramdek qarshi olingan bo'lsa, har bir kechikkan maktub yuraklarga g'ulg'ula solardi. Ko'pincha xatlar "Meni duo qilib turinglar, jonim sog' bo'lsa, ko'rishamiz" degan so'zlar bilan yakunlanardi.

Frontdan kelgan maktublar o'quvchi qalbida urushning haqiqiy manzarasini ochib berishi mumkin. Chunki ularda sog'inch va og'riq bor. Bu xatlar orqali inson qalbining eng nozik tuyg'ulari namoyon bo'ladi.

Muzeydagi sarg'aygan qog'ozlar bag'rida saqlangan hikoyalar har qanday o'quvchini befarq qoldirmaydi. Ularni o'qir ekanimiz, bugungi tinch hayotimiz o'sha maktublarni yozgan, ularni intizorlik bilan kutgan insonlar qismati bilan ayro emasligini ich-ichimizdan his qilamiz. Tilimizda nogoh ularning haqqiga pinhon duolar yangraydi.

**Dilafro'z
BEKMIRZAYEVA,
O'zJOKU talabasi**

FRONTDAN KELGAN sog'inchli maktublar



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Ozodlik yo'lida

IKKI KARRA QAHRAMON



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Domla Obidov – bu nom Farg'ona tumanining ko'pchiligiga yaxshigina ma'lum. Novcha, baland bo'yli, mo'ylovdor bu insonni ko'rgan inson borki, qo'lini chakkasiga qo'yib "chest beradi". Boisi salkam yarim asr umrini yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga, xalqqa sadoqat, hurmat tuyg'ularini shakllantirishga sarfladi.

1925-yilda Mullo Obid qozi xonadonida navbatdagi chaqaloq dunyoga keladi. Unga Muhammadjon deb ism qo'yadi.

Muhammadjonning yoshlik yillari avji qatag'on, ocharchilik vaqtlariga to'g'ri keladi. Yoshligidan zehni o'tkir bo'lgani uchun o'qish-yozishni tezda o'rganib oladi. Savodini qishloqdagi to'liqsiz o'rta maktabda chiqaradi. Endigina balog'atga yetganida urush

boshlanishi insonlar hayotini o'zgartirib yuboradi. Qo'lida qurol ushlagan qodir yigitlar frontga, yosh bolalar, ayollar va qariyalar esa dalalardagi mehnat ishlariga jalb qilinadi.

Dastavval, akasi Alijon urushga olib ketiladi. 1943-yili endigina 18 yoshni qarshilagan Muhammadjonni ham urushga olib ketishadi. Sal keyinroq, Uzoq

Sharqda qaytadan shakllantirilgan 113-aloqida o'qchi brigada tarkibida yapon kvantum armiyasiga qarshi 1945-yilning avgustidan janglarda ishtirok etadi. Aynan Yaponiyaga qarshi kurashda Janubiy Saxalin hamda Kuril orollarini ozod qilishga qaratilgan harbiy operatsiyalarda ishtirok etib, bir qator unvon va mukofotlarga loyiq deb topiladi.

Urush yakuniga yetgach, brigada bo'linmalari Kuril orollariga qurilish ishlari uchun joylashtiriladi. Askarlar ikki yil ichida orollarda 120 ta obyekt qurishga erishadi. 1948-yilga kelibgina, 113-aloqida Saxalin o'qchi brigadasi rasman tarqatib yuboriladi. Harbiy xizmatchilar uylariga qaytadi.

Olti yillik harbiylashgan hayot yakunida Muhammadjon Obidov uyiga, so'lim Farg'onaga oshiqdi. Ko'ksida "Jasorati uchun", "Yaponiya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" kabi medallari yaraqlab turardi.

Uyga qaytgach, maktabga ishga kirdi. O'quvchilarga ta'lim berishga bel bog'ladi. Urushdan so'ng hukumatning "Umumiy harbiy majburiyati to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, maktablar hamda kasb-hunar texnikumlarida "Boshlang'ich harbiy tayyorgarlik" fani joriy etiladi. Hududlarda mazkur fanni o'qitish harbiy ta'lim ko'rgan mutaxassislariga topshiriladi.

Farg'ona tumanidagi 30-o'rta maktabda ushbu fanni o'qitish vazifasi serjant Muhammadjon Obidovga yuklatildi. Safda to'g'ri turishdan tortib, AK-47 avtomatini qismlarga ajratish va yig'ishgacha, bularning barchasini yoshlarga o'rgatishni boshlaydi. Ustoz nafaqat dars berardi, balki yoshlarga Vatanni sevish, uning har bir qarich yerini avaylash, tuprog'ini aziz bilish kerakligini uqtirardi. Bunda unga urush davrida ko'rgan-kechirganlari yaxshigina asqatdi.

30-maktabdan so'ng tumandagi 49-, 48-umumta'lim maktablarida ishladi. O'z sohasi bo'yicha shogirdlar tayyorladi. Doimo kasbiga sodiq qolgan holda halol mehnat qildi. Shu tufayli yurtimizning qator mukofotlariga, e'tibor va e'zozlariga munosib ko'rildi.

Ish barobarida, oilada ham qattiqqo'l, tartib-intizomli ota sifatida farzandlarini tarbiya qildi. O'n nafar farzandni o'qitib, uy-joyli qildi. El-yurtga osh berib, bir hovli nabirali bo'ldi.

Bor kuch va g'ayratini, ilmini tinch-totuv hayot uchun bag'ishlagan Muhammadjon Obidovning ibratli hayot yo'li o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida mangu muhrlanib qoladi.

**Abduhoshim MAHAMADOV,
Farg'ona davlat universiteti
magistranti**

Yodnoma



“MARKAZ, MARKAZ, MENI ESHITYAPSIZMI?”

Tinchlik uchun kurashgan aloqachi askarning tahlikali taqdiri

Har qanday insonning taqdiri uning tanlagan yo'li, orzu-intilishlari va zamon sinovlariga qay darajada tayyor ekani bilan belgilanadi. Ayniqsa, bir davrda ham ma'rifat yo'lida xizmat qilib, ham yurt taqdiri hal bo'layotgan og'ir pallalarda jasorat ko'rsata olgan insonlar hayoti alohida e'tiborga loyiq. Bunday shaxslar o'z faoliyati bilan nafaqat zamondoshlariga, balki keyingi avlodlar uchun ibrat maktabidir.

Mahmud Xidirov ana shunday fidoyi insonlardan biridir. U 1914-yilda Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, Jiyda qishlog'ida dunyoga kelib, oddiy oilada voyaga yetgan bo'lsa-da, qalbida ilmga bo'lgan chanqoqlik va xalqqa xizmat qilish istagi erta shakllanadi. Yoshligidanoq bilim olish va uni boshqalarga ulashishni o'zining maqsadiga aylantirgan Mahmud 1929-yilda Qamashi tumani Qorabog' qishlog'ida joylashgan maktabga yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish uchun yuboriladi. Bu esa uning pedagogik faoliyatidagi ilk, ammo mas'uliyatli qadamlardan biri bo'lgan.

U o'z ustida ishlashdan to'xtamay, bilim va malakasini oshirishga intildi va 1936-yilda Qarshi davlat pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirib, muvaffaqiyatli yakunladi. Keyinchalik maktab direktori lavozimida faoliyat yuritib, ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashga katta e'tibor qaratdi.

Mahmud Xidirovning hayot yo'li faqat ma'rifat bilan cheklanib qolmadi. U zamon sinovlari qarshisida ham o'z irodasi va fidoyiligini namoyon etdi. 1941-yilning yozida urush shamoli yurtga yetib kelgach, uning oilasi ham bu og'ir sinovdan chetda qolmadi: ukalari Mirza va Baxtiyor oldinmaketin frontga jo'nab ketdi. Bu holat Mahmudning qalbidagi vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirdi. U ham harbiy komissariatga ariza bilan murojaat qildi. Garchi komissariat mas'ullari uni ma'lumotli kadr sifatida orqada qoldirishga uringan bo'lsalar-da, onasining "Hech bo'lmasa, sen yonimda qol!" degan iltijolariga qaramay, Mahmud "Bunday pallada chetda turish yigitga xos emas", deya o'z qarorida qat'iy turib oldi.

Shu bilan 1941-yil 10-dekabrda u Yakkabog' tumanidagi bir guruh yigitlar bilan frontga safarbar etildi va polkda aloqachi sifatida xizmatini boshladi. Urushning eng og'ir nuqtalarida aloqa xizmati harbiy qism taqdirini hal qiladigan mas'uliyatli vazifalardan biri edi.

1943-yili Kursk ostonasida kechgan hal qiluvchi janglarda bu mas'uliyat yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Jang avj olgan bir paytda aloqa nuqtalaridan biri ishdan chiqib, markaz bilan aloqa uziladi. Bu esa yordam kuchlarini chaqirish imkonini yo'qqa chiqarar, butun qismni halokat yoqasiga olib kelardi. Nosozlikni bartaraf qilish uchun yuborilgan aloqachilar guruhlarining hech biri ortga qaytmaydi. Simli aloqa esa tiklanmaydi.

Vaziyat tobora chigallashib borarkan, so'nggi umid sifatida bu xavfli vazifa Mahmud Xidirov zimmasiga yuklatiladi. Bu nafaqat uning, balki butun harbiy qismning taqdirini belgilab beruvchi palla edi. Hali 30 yoshga ham kirmagan bo'lsa-da, u bu mas'uliyatni chuqur his etib, orqada qolishni xayoliga ham keltirmasdi.

U komandirining topshirig'i bilan vazifani bajarishga o'tlanadi. Bir necha chaqirim masofani dushman ko'ziga tashlanmaslik maqsadida tepalik bag'irlab, ehtiyotkorlik bilan emaklab bosib o'tishga majbur bo'ladi. Yo'lda esa halok bo'lgan to'rt nafar safdoshining jasadiga duch keladi. Bu manzara har qanday insonni qo'rquvga solishi hech gap emasdi. Ammo Mahmud sarosimaga tushmadi. U vaziyatni tezda baholab, ular dushman mergani nishoniga aylanganini payqaydi.

O'LIMGA CHAP BERIB

Mahmud vaziyatni tahlil qilib, o'zidan oldin yuborilgan to'rt nafar askar taqdiri uni ham boshiga tushmasligi uchun puxta reja tuza boshlaydi. Jang maydonida minglab yigitlar jon olib-jon berayotgan bir paytda, bir inson hayoti go'yo bir zarraday tuyulishi mumkin. Ammo bu safar masala boshqacha edi: butun bir harbiy qismning taqdiri, safdoshlarining hayoti uning qanday qaror qabul qilishiga bog'liq edi.

U buni bir lahzada anglab, tadbir ko'rdi. Boshidagi shlemni yechib, uni qurolining uchiga ildi va ehtiyotkorlik bilan tepalikdan ko'tardi. Hiyla ish berdi: pinhona yotgan dushman mergani shu zahoti bosh kiyimga qarata o'q uzdi. Mahmud esa o'zini o'qqa tutilgandek qilib, qurolini yerga asta yiqitdi. Shu yo'l bilan u merganni chalg'itib, o'zining keyingi harakatlari uchun imkoniyat yaratdi.

Bunday vaziyatlarda har bir soniya butun bir hayotga teng. Nayrangli ish bergach, keyingi harakat rejasini ishlab chiqdi va yana bir necha yuz metr masofani ehtiyotkorlik bilan emaklab bosib o'tib, qalin o'rmon tomon odimladi. Nihoyat, dushman snaryadi tegib, yonib ketgan aloqa qutisini topdi. Atrofda o'q ovozlari tinimsiz yangrab turganiga qaramay, u o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

Ancha urinishlardan so'ng u jang maydoni bilan harbiy qism o'rtasidagi uzilgan aloqa tizimini tiklashga muvaffaq bo'ldi. Ammo ish bu bilan tugamadi. Aloqa haqiqatan tiklanganini tekshirish uchun Mahmud o'zi bilan olib kelgan moslamani tizimga ulab, markaz bilan bog'lanishga harakat qildi. Yuragi tez-tez urar ekan, umid bilan pichirladi:

– “Markaz, markaz, meni eshityapsizmi?”

Bir necha lahzadan so'ng eshitilgan javob u uchun go'yo yangi hayot bag'ishlagandek bo'ldi. O'rtadagi uzilish tiklanib, topshiriq a'lo darajada bajarilgan edi.

Mahmud xizmat joyiga qaytgach, uning jasorati va zukkoligi yuksak baholandi. Harbiy qism komandiri tomonidan u jangda ko'rsatgan qahramonligi uchun “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

MAXFIY TOPSHIRIQ

Dnepr yoqalarida hal qiluvchi janglar avj olgan, har bir daqiqa butun front taqdiriga ta'sir qilayotgan og'ir palla edi. Daryodan o'tish operatsiyasi muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsa-da, dushmanning keyingi harakatlarini aniqlash masalasi barchani birdek o'ylashga majbur qilardi. Shu bois harbiy qism komandiri ishonchli va jasur jangchilardan iborat razvedka guruhini shakllantirib, uning tarkibiga Mahmudni ham qo'shadi. Ularga berilgan topshiriq aniq va xavfli edi – har qanday sharoitda dushman qarorgohidan “til” olib kelish.

Tun qorong'isi ostida, har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosib, guruh dushman hududiga sezdirmay kirib bordi. Atrofni sukut chulg'agan, faqat shamolda silkingan daraxtlar shiviri eshitilardi. Nihoyat, ular dushman qarorgohiga yaqinlashadi. Shu yerda navbatchilik qilib yurgan nemis ofitseriga ko'zi tushadi. Mahmud va uning sheriklari ehtiyotkorlik bilan harakat qilib, hech qanday shovqin-suronsiz uni asir olishga muvaffaq bo'ladi.

Biroq ortga qaytish yo'li kutilgandan ancha og'ir kechadi. Dushman ularning izidan tushganini payqagan guruh o'rmon ichkarisiga chekinishga majbur bo'ladi. Bir muddat xavfdan qutulgandek tuyulgan paytda, kutilmaganda tepalarida dushmanning kuzatuv samolyoti paydo bo'ladi. Bir necha soniya ichida o'q yomg'iri va bombardimon boshlanadi.

Jangchilar tirik qolish uchun turli tarafga tarqaladi. Mahmud guruh rahbari – Nikolay ismli ofitser bilan birga oldinga intilardi. Shunda to'satdan ularning yoniga bomba tushib portlaydi. Zarba shunchalar kuchliligidan Mahmud bir muddat hushini yo'qotadi.

Birozdan so'ng u o'ziga keldi. Ko'z oldi xira, qulog'ida shovqin. Atrofga nazar tashlar ekan, Nikolayning og'ir yaralanganini ko'radi. Uning tanasi qonga belangan, ammo hali hayot uchun kurashayotgan edi. Nikolay so'nggi kuchini to'plab, Mahmudni yoniga chaqiradi. Bo'ynidagi durbinni yechib, unga uzatar ekan, nim tabassum bilan shunday deydi:

“Bu senga... uni ishlatganingda meni eslab yurasan, do'stim”.

Shu so'zlar bilan u ko'zlarini abadiy yumdi.

Bu holat Mahmud qalbida chuqur iz qoldiradi. U sherigining so'nggi vasiyatini qalbiga muhrlab, o'zini qo'lga oladi. Qolgan jangchilar bilan birga asirga olingan ofitserni olib, harbiy qismga qaytishadi.

Biroq portlashda Mahmudning ham boshiga oskolka tekkan ekan. Harbiy qism komandiriga asirni topshirayotib, olgan jarohati tufayli hushini yo'qotadi.

U harbiy kasalxonada o'ziga keladi. Bir oydan ortiq davolanishdan so'ng Mahmud yana safga qaytadi. Uning qalbida faqat do'stlarining xotirasi va Vatan oldidagi burchini munosib ado etish istagi yonib turardi.

Qismga qaytishi bilan u to'g'ridan to'g'ri komandir huzuriga kiradi. Komandir darhol tanib, uning jasoratini yuksak baholaydi. Safarbar etilgan barcha jangchilar oldida Mahmudning qahramonligi haqida so'zlab, uni “Jasorat” medali bilan taqdirlaydi va katta serjant unvonini topshiradi.

Bu e'tirof Mahmud uchun nafaqat mukofot, balki yanada katta mas'uliyat bag'ishlaydi. U keyingi janglarda ham bor kuch g'ayrati bilan Ukraina, Belarus, Ruminiya va Germaniya hududlarida kechgan og'ir to'qnashuvlarda faol ishtirok etadi. Har bir jang, har bir qadam uni tobora chiniqtirib, tajribali va matonatli jangchiga aylantirardi.

VATAN OLDIDAGI BURCH

1945-yil – urush nihoyasiga yetgan, olam nafas rostlab, tinchlikning ilk sabolari sezila boshlagan payt. Ana shu damlarda Mahmud Xidirov ham Vatan oldidagi muqaddas burchni sharaf bilan ado etib, yurtiga qaytadi. U qaytdi, lekin urushdan omon qaytgan har bir inson kabi yuragida og'ir xotiralar, ko'nglida o'chmas izlar bilan qaytdi. Eng alamlisi, oilasi ikki farzandidan ayrilgandi. Janggohlarda jonfido qilgan bu yigitlar ota-ona uchun katta yo'qotish, qalbni timagan bitmas dard edi. Bu musibat Xidirovlar xonadonida o'chmas iz qoldirdi.

Shunday bo'lsa-da, Mahmud bobo hayot oldida taslim bo'lmadi. U urushda qo'lga kiritgan matonati va sabrini tinchlik davrida ham saqlab qoldi. U qurol emas, qalam bilan kurashishni, kelajakni bilimli va vatanparvar avlod qo'lga topshirishni o'z oldiga maqsad qildi. Umrining qolgan qismini yoshlar tarbiyasiga bag'ishlab, uzoq yillar davomida o'qituvchilik qildi, ta'lim muassasalarida rahbarlik vazifalarida samarali faoliyat yuritdi.

Mahmud bobo mingdan ziyod shogirdlarni tarbiyalab, ularning hayotda o'z o'rmini topishlariga yo'l ko'rsatdi. Uning shogirdlari orasidan oddiy mehnatkashlardan tortib, olimlar, rahbar xodimlar, professorlar, fan nomzodlari, ijod ahli yetishib chiqdi.

Uning fidokorona mehnati va Vatan oldidagi xizmatlari munosib qadrlandi. Mahmud Xidirov “Mehnat qahramoni” unvoni, “Ikkinchi darajali urush qatnashchisi” ko'krak nishoni hamda “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. Bu mukofotlar ortida esa bir insonning butun umri, jasorati, sabri va sadoqati mujassam.

Bugun Mahmud bobo oramizda yo'q. Ammo uning jang maydonlaridagi qahramonligi, tinchlik davridagi mehnati va inson sifatidagi yuksak fazilatlarini yoshlar qalbida yashashda davom etmoqda.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”

Xotira mangu...

JANGGOHLARDA JASORAT KO'RSATGAN

jurnalists



Surat sur'iy intellekt yordamida tayyorlandi

1942-yilning qahraton qish kunlari. Fashistlarga qarshi olib borilayotgan qonli janglarning avj pallasi. Urushning ilk kunlaridan jangga otlangan Abdulla bosqinchilarga qarshi beomon kurashayotgan jangchilar safida. Insonlar taqdirini, hayotini, kasb-u korini tubdan o'zgartirib yuborgan ulkan muhoraba yigitning hayotida ham keskin burilish yasadi. "Toshkent reportyori" deb nom chiqargan taniqli jurnalist bugun mohir aloqachi.

Aloqani qontomiriga bejiz qiyoslashmaydi. Tomirdagi qon to'xtadimi, inson hayoti yo'qlikka yuz tutadi. Jangda esa aloqa shu qadar muhimki, janggohlardagi vaziyatning har lahzasini nazorat qilish, yo'lga solish, g'alaba qozonish imkoniyatini yaratadi. Harbiy aloqachilar kursida tahsil olgan Abdulla Sharafiddinov bombalar yerni ostin-ustin qilib, o'qlar chiyillab yog'ilib turgan janglarda barchani hayratga solib, uzilgan aloqa simlarini tiklashga shoshiladi. Uning burchga sodiqligi, ortga chekinmasligi safdoshlariga dadillik bag'ishlaydi, har gal.

– Askar Sharafiddinov, – front chizig'idagi simyog'ochlarga sim ulayotgan Abdulla pastda starshinani ko'rdi, – tez pastga tush!

– O'rtoq starshina, ishimni yakunlab olay.

– Tezroq pastga tushsang-chi, seni diviziya qo'mondonligiga chaqiryapti. Senga muhim topshiriq bor ekan, – buyruq berdi starshina.

– Xo'p bo'ladi!

U pastga tushar ekan, o'ziga o'zi gapirardi: "Tushunmadim, sim ulanmagan yana uch-to'rtta simyog'och qoldi. Buni o'ta zarur topshiriq deyishgandi. Bundan-da muhim nima bo'lishi mumkin?"

* * *

– O'rtoq ofitserlar, kirsam mumkinmi? – nimyorug'lik taralib turgan xona eshigini ochib, ruxsat so'radi Abdulla.

– Kirishingiz mumkin, – zambarak gilzasiga ulangan pilik uchini xiyol ko'tarib, ostonadagi novchadan kelgan yigitni ichkariga taklif qilishdi.

Bir oz hayajondagi Abdulla shinel ustidan taqqan tasma-sini qattiq tortdi va bosh kiyimini to'g'rilab, ichkariga kirdi va o'zini tanishtirdi.

– Abdulla... nahotki siz? – O'midan sakrab turib, uni bag'riga bosdi ofitserlardan biri.

Ikki og'ayni quchoqlashib ko'risha ketdi.

– Bu yigit O'zbekistonda "Toshkent reportyori", deb nom taratgan taniqli jurnalist, – xonadagilarga uni tanishtirdi "Qizil askarlar haqiqati" gazetasi muharriri Adham Rahmat. – U "Qizil O'zbekiston" tahririyatida Toshkent shahri bo'yicha yetakchi reportyor edi.

Davrada-gilar u bilan birin-кетин salom-alik qildi.

– Qaysi shamollar uchirdi sizni biz tomonlarga? –

Abdullaning izg'irinda qizargan yuzlariga termilar ekan, so'radi u.

– Gazetachilar bo'lsa, yuboringlar, deb siyosiy boshqarmadan so'ragan ekansizlar.

– Ha, shunday, bizga muxbirlar yetishmayotgan edi. Qaysi qismda xizmat qilayotgan edingiz?

– Aloqachiman!

– Aloqachi? Qoyil, bizning qalamkashlar barcha hunarni o'zlashtira oladi...

Ikki hamkasb, ikki og'ayni polga to'shalgan matras ustida uzoq suhbatlashdi. Katta Farg'ona kanali yo'nalishidagi qaynoq ijodiy davrlardan boshlab, Toshkent shahridagi turli tashkilot va korxonalaridan tayyorlagan lavhalarga qadar bir-bir yodga olishdi.

– "Toshkentda nega tuz yo'q?" deb yozgan maqolangiz esingizdami?

Abdulla bosh irg'ab, mayin kulib qo'ydi.

– Ha, muxbirlar doim xalq dardi bilan yashaydi, do'stim. Mana, endi boshqacha xabarlar yozadigan davr keldi, – ko'tarinki kayfiyatda rejaları haqida to'xtaldi Adham aka. – G'arbiy frontdagi o'zbek jangchilari uchun gazeta chiqaryapmiz. Hali muxbirlarimiz yetarli emas, mana shu uch kishi navbati bilan oldingi marralarga borib, maqolalar tayyorlab kelyapmiz. Sizdek qalami o'tkir ijodkorning safimizga qo'shilishi ayni muddao. Endi ishimiz yanada jonlanadi, astoydil harakat qilamiz. Jangchilarimizni ruhlantiradigan, jasoratga chorlaydigan gazeta chiqaramiz...

Sevimli kasbga qaytganidan boshi osmonda Abdulla vazifasiga chin dildan yondashdi. Harbiy muxbir sifatida jang maydonlaridan xabarlar yig'ib kelar, "Qizil askarlar haqiqati"da uning har gal ikki-uch maqolasi bosilib chiqardi. Ko'p o'tmay, intiluvchan muxbirning sa'y-harakati bilan "Front hangomalari" rukni ostida hajviy sahifa tashkil qilindi. Unda katta serjant Sharafiddinovning jangchilardan yozib olgan qiziqarli hangomalari o'rin oldi. Jangchilar e'tiborini qozongan, kayfiyatini ko'targan bu sahifa "Xo'ja Nasriddin frontda" rukni ostida muntazam chiqq boshladi.

– Bilasizlarmi, jangchilar orasida o'ziga xos ijodkorlar talaygina, – bir safar janggohdan qaytgan Abdulla bir qator bir-biridan qiziq latifalar qoralab keldi. – Bularning barchasini askarlarning o'zi to'qigan.

– Qoyil, bularni berib borsak, jangchilarning kayfiyati yanada chog' bo'ladi, – uning tashabbuskorligidan xursand bo'ldi safdoshlari.

– Yana o'n-o'n beshta "muxbir" ham tayyorlab keldim, – kuldi Abdulla. – Hademay, ular xatlar orqali qoralamalarini yuborishadi.

U yanglishmagandi, tadbirkor muxbirning yaratuvchanligi sabab tahririyatga keladigan xatlar soni keskin oshdi. Kunora bir-ikkita keladigan xatlar bora-bora o'ttiz-qirqqa yetdi.

U nafaqat jangovar, balki barcha yo'nalishda yonib ijod qilardi.

– Abdulla, sizga alohida topshiriq belgilangan, – gazeta muharriri yuzlandi unga. – G'arbiy frontdagi jangchilarga xizmat ko'rsatish uchun O'zbekistondan san'atkorlar kelgan. Ular orasida mashhur yozuvchi Oybek domla ham bor. Uning maqsadi nafaqat jangchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, balki asar ham yozish. Siz O'zbekiston Telegraf agentligining jamoatchi muxbiri sifatida

san'atkorlarning tashrifi bilan bog'liq maqolalarni front gazetasi bilan birga respublika matbuotiga ham yuborib turasiz.

– Xo'p bo'ladi! – harbiylarga xos javob qaytardi Abdulla.

U harbiy qismlarda san'atkorlar bilan birga bo'lish asnosida, ularning safida turib yozuvchi Oybekning "Salom deb qoldilar" nomli she'rini jangchilarga o'qib berib yurdi. San'atkorlar yurtga qaytgach, yana uning ijodida o't-olov ichidagi janggohlardan jangovar lavhalar tayyorlash jarayoni boshlandi.

– Mayor Mirzoirovning batalyoni hujum boshlayapti, – tun yarmida telefon orqali axborot berdi u. – Men ham mayor bilan birga hujumga kirib ketyapman...

Ko'p o'tmay, uning qo'li bilan yozilgan maqola tahririyatga yetib keldi: "Vaqt yarim kechadan oshib qoldi. Mayor Mirzoirov batalyoni hujumga o'tish haqida buyruq oldi, jang boshlandi... Batalyon shu bugun qanday qilib bo'lsa-da, Budomanastir qishlog'ini ishg'ol qilishi kerak. Artilleriyamiz bir soat-u qirq minut to'xtovsiz o't ochib, dushman mudofaasini ostin-ustin qilib tashladi... Jang borgan sari shiddatli tus olmoqda. Dushman qirilayotganiga qaramay, quturib qarshilik ko'rsatyapti. Katta leytenant Gajiyevning minomyotchilariga ofarin. Ular otgan snaryadlar dushman boshi ustida, oyog'i ostida bexato portlab, gitlerchilarni yakson qilmoqda.

Merganlar ham mohirlik bilan harakat qilyapti. Yigirma olti fashistni yer tishlatgan Konimex tumanidan kelgan Qosimov, vobkentlik Jo'rayev dushman avtomatchilariga omonlik bermay turibdi..."

Katta leytenant Abdulla Sharafiddinovning har bir maqolasi uning oldingi safdagi jangchilar orasida turib, lavhalar tayyorlayotganidan dalolat berib turardi. Uning shu tariqa harbiy jurnalistik mahorati o'tkirlashib bordi. Jurnalistsning "Til ovchisi" maqolasi frontda chiqadigan barcha gazetalarda e'lon qilindi.

U frontning oldingi marralarida, jangchilar orasida yurib, ijod qilayotgani uchun harbiy jurnalistgina emas, otashin targ'ibotchi ham edi. Jangchilarga front bo'ylab fashistlar ustidan qozonilayotgan g'alabalar, front ortida xalqimiz qilayotgan fidokorona mehnat, erishayotgan yutuqlari va g'alaba yaqinligi haqida so'zlab, ularga har tomonlama kuch-quvvat, ruhiy tetiklik bag'ishlardi.

1945-yilning 17-yanvari. Qo'shinlarimiz Litvani ozod qilib, Sharqiy Prussiya tomon hujum janglarini boshlagan olovli palla. Abdulla har doimgidek, oldingi safdagi jangchilar orasida. Maqsadi jangchilarimiz qahramonligini madh etuvchi yangi lavhalar tayyorlash. Mana, u jangchilar bilan birga harakat boshladi. Shu tobda vujudini bir parcha olov kuydirib o'tgandek bo'ldi. Yerga cho'kkalab qoldi va orqaga yiqildi. Qo'lini ko'krak cho'ntagidagi qog'oz va qalamga bosgancha, ko'zlari osmonlarga tikilgan ko'yi jim qoldi...

Otashin jurnalist katta leytenant Abdulla Sharafiddinov janggohdan tahririyatga qaytmadi. Jangchilarga g'alaba onlariga sanoqli kunlar qolganini so'zlab umid, ishonch va ruhiy quvvat baxsh etgan olovqalb ijodkorga muzaffar kunlarni ko'rish nasib etmadi. Uni Neman daryosi bo'yidagi xushmanzara joyga dafn qildilar...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Qadr – muqaddas

A VLIDLARNI BOG'LOVCHI

muqaddas rishta

Inson qalbida shunday xotiralar borki, ular vaqt o'tishi bilan unutilib ketmaydi, aksincha yillar o'tgan sari yanada qadri, muqaddas tuyg'uga aylanadi. Urush yillarining achchiq saboqlari, front ortidagi mashaqqatli mehnat, yo'qotish va umidlar bilan qarishgan hayot bularning barchasi bugungi tinch va osuda hayotimizning poydevoridir.

Shu bois 9-may – Xotira va qadrlash kuni shunchaki sana emas, balki o'tmishni yodga olish, qalblarda bugungi tinchlik ne'matiga shukronalik tuyg'usini uyg'otish, shu bilan birga ajdodlarimiz jasorati va matonatiga cheksiz ehtirom ko'rsatishga chorlaydigan muqaddas kun sifatida qimmatlidir.

Surxondaryo viloyati Denov tumani "Bog'i Eram" MFY, Porloq yulduz 1-tor ko'chasida istiqomat qiluvchi 102 yoshli To'ra bobo Zabirov ham ana

shunday insonlardan biri. U kishining hayot yo'li o'tmishning og'ir sinovlari, sabr va matonat bilan yo'g'rilgan xotiralarga boyligi bilan alohida e'tiborga molik. Shu munosabat bilan Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qism harbiy xizmatchilari nuroniy otaxon xonadoniga tashrif buyurib, u kishining holidan xabar oldilar.

"Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida o'tkazilgan mazkur tadbir

doirasida Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi hamda 18-sonli umumta'lim maktabining "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari Sariosiyo tumani "Yoqutli bog'" MFYda istiqomat qiluvchi 101 yoshli O'rinbadal bobo Yorov xonadonida mehmon bo'lishdi. Uchrashuv davomida nuroniy otaxon o'z hayot

yo'li, urush yillaridagi og'ir mehnat va xalqning bir yoqadan bosh chiqarib yashagan davrlari haqida to'liqlanib so'zlab berdi:

– O'sha paytlarda hamma bir maqsad yo'lida yashardi – g'alaba uchun. Hech kim mehnatdan bo'yin tovlamagan. Qiyinchiliklar ko'p bo'lgan, lekin odamlar orasida mehr va birdamlik kuchli edi. Siz, yoshlarga nasihatim – Vatanni seving, tinchlikning qadriga yeting. Chunki tinchlik bor joyda hayotning qimmatini bo'ladi, baxt bo'ladi, kelajakka umid bo'ladi...

Tashriflar davomida faxriylarga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatildi, esdalik sovg'alar topshirildi. Nuroniylar esa bugungi tinch va farovon hayot uchun shukronalik bildirib, davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va e'tibor uchun samimiy minnatdorlik izhor etdilar.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**

E'zoz

TARIX VA BUGUN TUTASHGAN

lahzalar

Andijon garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Iminjon ota Temirov xonadoniga tashrif buyurib, holidan xabar oldilar. Samimiy ruhda o'tgan uchrashuv davomida faxriyning urush yillaridagi jasorati, mardligi va fidokorona xizmatlari chuqur hurmat bilan yodga olindi.

Marhamat tumanida istiqomat qiluvchi Iminjon ota Temirov umrining 8 yilini frontorti va jang maydonlarida o'tkazgan. U 1941–1942-yillarda 113-aloqida o'qchi brigada tarkibida bo'linma komandiri sifatida Kuban hududidagi og'ir janglarda qatnashgan. Janubiy Saxalin va Kuril orollaridagi harbiy harakatlarda ham faol ishtirok etgan. Urushdan keyingi yillarda esa ta'lim sohasida samarali faoliyat yuritib, ko'plab yoshlarni bilimli va vatanparvar etib tarbiyalashga o'z hissasini qo'shgan.



Shu kabi tadbirlar davomida Namangan garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari Yangiqo'rg'on tumani Poromon mahallasida istiqomat qiluvchi 105 yoshni qarshilagan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Muhammadibrohim ota Inomov xonadoniga tashrif buyurishdi. Shu kuni nuroniy otaxon va harbiylar o'rtasida samimiy suhbat bo'lib o'tdi, tibbiyot xodimlari otaxonning sog'lig'ini ko'zdan kechirishdi.



Muhammadibrohim bobo o'zbek otliq askarlar diviziyasi safida xizmat qilgan. U Stalingrad, Qrim, Ukraina va Polsha hududlaridagi shiddatli janglarda qatnashib, jasorat ko'rsatgan.

Otaxon bugungi tinch hayot haqida so'z yuritarkan: "Yoshlar

tinchlikning qadriga yetsin, har tomonlama bilimli bo'lib, Vatanga sidqidildan xizmat qilsin. Chunki Vatan himoyasi nafaqat jang maydonida, balki ilm va tarbiya bilan ham amalga oshadi", deya o'z tilaklarini bildirdi.

Bunday uchrashuvlar yosh harbiy xizmatchilar qalbida milliy g'urur, tarixiy xotiraga hurmat va Vatanga muhabbat tuyg'ularini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Faxriylarning ibratli hayot yo'li esa kelajak avlod uchun chinakam ma'naviy maktab bo'lib xizmat qiladi.

**Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot
xizmati bosh mutaxassisi**

Ma'qalam sehri

Insoniyat tarixidagi eng fojiali sahifalardan biri bo'lgan Ikkinchi jahon urushi yillari millionlab taqdirni izdan chiqardi, orzu-umidlarni chilparchin etdi. O'sha qirg'in yillarida front yo'llari faqat jang maydonlariga emas, balki sabr, sog'inch va umid bilan to'la uzun va mashaqqatli intizorlik sari ham olib borar edi. Jangchilar uchun uyga qaytish – oddiy bir yo'l emas, balki hayot va mamot orasidagi uzun sinov, yaqinlar diydoriga yetishish esa eng yuksak orzuga aylangan edi. Ko'plab otalar bu yo'ldan qayta olmadi, ko'plab bolalar esa umr bo'yi "ota" degan so'zni qalbida armon qilib saqladi.

Ana shu og'ir va ziddiyatli tuyg'ular I. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat san'at muzeyi fondida saqlanayotgan asarlarda ham chuqur aks etgan. Urush mavzusi bu yerda shunchaki tarixiy voqelik sifatida emas, balki inson qalbining og'rig'i, sabri va umidining badiiy talqini sifatida namoyon bo'ladi. "Jangovar birodarlik qo'shig'i", "G'alaba", "Yutuq" va shu kabi bir qator rangtasvir ishlari shular jumlasidan. Bu asarlar urushning turli qirralarini – jasorat, yo'qotish va intizorlikni o'zida mujassam etgan

“UYGA QAYTISH” — sog'inch va umid manzarasi

bo'lsa-da, ular orasida "Do'stlik" ordeni sohibi, Qoraqalpog'iston xalq rassomi Bazarbay Serekeyev yaratgan "Uyga qaytish" kartinasi, ayniqsa mazmun jihatidan chuqur ta'sir kuchiga ega. Rassom mazkur asarni Ikkinchi jahon urushi yillaridan qaytmagan otalar xotirasiga bag'ishlab yaratadi.

Bu asar shunchaki bir oilaviy sahna emas u butun bir avlodning armoni, kutilgan va kutilmagan taqdir haqidagi chuqur falsafiy mulohazadir. Rassom urushdan qaytmagan otalar taqdirini badiiy tasvir orqali "qaytarib", amalga oshmagan orzularni ranglar vositasida ro'yobga chiqaradi. Kartinadagi uyga qaytgan ota bu real voqelikdan ko'ra, ko'proq millionlab bolalar qalbida yashagan orzu timsolidir.

Ovul bolalari baland tepaliklarga chiqib, uzoq yo'llarga tikilib, otalarini kutib yashagan onlar – bu bolalikning eng og'ir va sinovli sahifalari. Ular uchun har bir kun umid va sog'inch o'rtasidagi kurashga aylangan. Rassom ana shu intizorlikni ranglarda jonlantirib, vaqt va makon chegaralarini yo'qqa chiqaradi: u o'tmishda amalga oshmagan uchrashuvni san'at orqali ro'yobga chiqaradi.

"Uyga qaytish" asarida ota bag'rida erkanayotgan bolalarning quvonchi beqiyos. Ulardan biri otasining ko'ksidagi medalga hayrat bilan tikiladi. Go'yo bu medal orqali otasining boshidan kechgan qahramonlik



va mashaqqatlarni anglashga intilayotgandek. Yana biri esa qo'lidagi oddiy qandni ulkan baxt ramzi sifatida tutadi. Bu mayda detallar orqali rassom urush yillaridagi hayot haqiqatini juda ta'sirchan ifodalaydi.

Dasturxonadagi patir, zog'ora non va qand bu oddiy taomlar emas, balki ocharchilik yillarida orzu qilingan ne'matlar ramzi sanaladi. Urush va uning asoratlari faqat frontda emas, balki orqada qolgan hayotda ham iz qoldirganini rassom aynan shu detallar orqali yurakka yetib boradigan tarzda ko'rsatadi.

Eng muhimi, Bazarbay Serekeyev bu asar orqali inson xotirasi va umidining cheksiz kuchini namoyon etadi. U bizga shunday bir haqiqatni anglatadiki, kelajakka to'g'ri qarash uchun o'tmish dardlarini unutmaslik, balki ularni anglab, qadrlash zarur. Zero "Uyga qaytish" bu faqat bir kartina emas, balki qaytmaganlarni qaytarishga bo'lgan qalb ehtiyoji, inson ruhiyatining yengilmasligini tasdiqlovchi badiiy hujjatdir.



Shu ma'noda, bu asar tomoshabinni befarq qoldirmaydi. U qalbni o'tmish bilan yuzlashtiradi, sog'inchni anglashga, qadriyatlarini qayta kashf etishga chorlaydi. "Uyga qaytish" orqali rassom faqat bir oilaning emas, balki butun bir avlodning yuragida yashab kelayotgan orzularni ovoza aylantiradi. Bu kartina – xotira va umid o'rtasidagi ko'prik, urush yaralarini esga soluvchi va shu bilan birga inson qalbining yengilmasligini tarannum etuvchi ma'naviy meros sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shohista ABDURAHMONOVA,
san'atshunos

Ajdadlar jasorati – yoshlarga ibrat

Isr bilan YUZLASHGAN JASORAT

Surxondaryoning tog'lari kabi mag'rur, Darbandning soylaridek beg'ubor bir inson bor. U – bir asrlik tarixning tirik she'ri, jasoratning jonli timsoli. 104 yoshli Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, zahmatkash muallim Shohimardon bobo Hamroyev bilan yuzlashganda, inson irodasining naqadar cheksiz ekaniga yana bir bor iymon keltirasiz.

1922-yil. Boysunning Darband qishlog'ida duradgor xonadonida chaqaloq yig'isi eshitildi. Unga Shohimardon deb ism qo'ydilar. Hech kim bu go'dak kelajakda dunyoni fashizm balosidan qutqarishda ishtirok etishini, Berlin ostonalarida to'p otishini xayoliga ham keltirmagan edi.

1940-yilda 18 yoshli yigit temiryo'l qurilishida mehnat qilayotgan edi. Biroq tinch mehnatni urush suronlari buzdi. 1941-yilda Shohimardon qo'lga qurol oldi. Marshal Rokossovskiy qo'mondonligidagi 3-Belarus frontining artilleriya qismlarida to'pchi sifatida jangga kirdi.

"Biz nafaqat yerni, balki kelajakni himoya qilardik", deydi otaxon o'sha kunlarni eslab.

Uning jang yo'li xaritasi hayratlanarli: Voronej, Latviya, Litva, Estoniya. Marshal Bagramyan boshchiligida Kyonigsberg va Xeylsberg qal'alarini zabt etishda ko'rsatgan qahramonligi uchun bir necha bor o'lim bilan yuzma-yuz keldi, yarador bo'ldi, ammo chekinmadi. 1945-yilning bahorida u g'alabani Berlinda kutib oldi.

Boboning kostyumidagi medallarning jarangida urushning



og'ir xotiralari va g'alabani shirin nashidasi bor.

Urush tugagach, Shohimardon uyga qaytib, yana bir ulug' jangga kirdi – bu savodsizlikka qarshi kurash va ma'rifat tarqatish jangi edi. 1949-yildan boshlab, chekka qishloqlar – Avlod, Xo'jabulg'on va Darband maktablarida rus tili va adabiyotidan dars bera boshladi.

Ilmga bo'lgan chanqoqlik uni 1956-yilda Stalinobod (*Dushanbe*) davlat pedagogika institutiga yetakladi. 40 yil davomida doska oldida turib, minglab yoshlarning qalbiga ezgulik urug'ini qadadi. Uning zahmatli mehnatlari "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni bilan taqdirlandi.

Shohimardon bobo bugun faqat xotiralari bilan emas, balki uning atrofida parvona bo'lgan ulkan oilasi bilan ham baxtli. Uning hayoti bir ulug' chinorga o'xshaydi, bu chinorning shoxlari kun sayin kengayib bormoqda. 11 nafar farzand, 48 nafar nabira, 70 nafar chevara, 7 nafar evara, jami 136 nafar avlod bugun boboning duosini olib, uning matonatidan kuch olmoqda.

Yaqinda Termiz davlat universiteti talabalari boboni yo'qlab borishganda, u kishining ko'zlarida yoshlik shijoatini ko'rishdi. Otaxonning yoshlarga aytgan so'zlari har bir vatandoshimizning qulog'ida qolishi kerak: "Biz qon kechib, och-nahor yurib, qo'lga kiritgan bu tinchlikni siz ilm bilan asrang! O'qing, o'rganing, ota-onangizga va Vataningizga mehribon bo'ling! Tinchlik – eng katta boylik!"

Shohimardon boboning 104 yillik hayoti shunchaki yashab o'tilgan yillar emas, balki Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, kasbga sadoqat va yengilmas irodaning jonli darsligidir. Biz siz bilan faxrlanamiz, tirik qahramonimiz!

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
o'zbek filologiyasi
fakulteti tyutori

Kelajagimiz bunyodkorlari

XORAZMLIK YOSHLAR BILAN UCHRASHUV



9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Urganch shahrining Gulzor mahallasida O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 200 dan ortiq xorazmlik yosh bilan uchrashuv o'tkazdi.

"Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida o'tgan ochiq muloqotda H. Botirov yig'ilganlarga "Vatanparvar" tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to'g'risida ma'lumot berdi. Namoyish etilgan mavzuga doir infografikalar yoshlarda

tashkilot faoliyati haqida yanada ko'proq tasavvur hosil bo'lishi uchun xizmat qildi.

Tashkilot o'quv muassasalarida fuqarolar haydovchilik kasbidan tashqari vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektrik kasblariga o'qitilishi, shu bilan birga, yuk ortuvchi transport, avtogidropodyomnik, yuk mashinasi krani, g'ildirakli traktor, bitta kovshli ekskavator texnikalarini boshqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlanishi bildirildi.

"Vatanparvar" tashkilotining yosh sportchilari nafaqat respublika, balki MDH, Osiyo va jahon chempionatlarida yuqori o'rnlarni qo'lga kiritayotgani

haqidagi ma'lumot tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Ochiq muloqot qizg'in savol-javoblar bilan o'tdi. Bir qator yoshlar tashkilotning o'quv muassasalarida kasb-hunar egallash va sport bilan shug'ullanish istagini bildirdi.

Tadbir doirasida "Vatanparvar" tashkiloti rahbari Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi o'quv muassasalariga 10 ta yangi "Chevrolet Onix", 6 ta "KIA Sonet" avtomobillari va 10 ta "FOTON" yuk mashinalarini topshirdi.

"Motokross", "Karting", "Biatlon", "Duatlon", "Triatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel", "Parashyut" va "Radiosport" seksiyalarining ko'rgazmalari tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Mehr va e'tibor

URUSH FAXRIYSI holidan xabar olindi

9-may – Xotira va qadrlash kunining umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi yurtimizda tinchlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, hurriyat yo'lida qurbon bo'lganlar xotirasini yod etish, bugun oramizda yashayotgan urush va mehnat faxriylariga g'amxo'rlik ko'rsatishning yorqin ifodasidir.



Joriy yilda ham mamlakatimizda ayni tadbirlar "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida o'tkazilmoqda.

Sana munosabati bilan "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov va bir guruh yoshlar Xorazm viloyatining Gurlan tumanida istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Bobojon Madaminov holidan xabar oldilar. Yo'qlovdan g'oyat xursand bo'lgan 107 yoshli urush faxriysi mehmonlarga o'z minnatdorligini bildirib, jang maydonida bo'lib o'tgan xotiralari bilan bo'lishdi.

Qizg'in va maroqli uchrashuvdan so'ng Bobojon ota Yaratgandan yurtimizda abadiy tinchlik-xotirjamlik, to'kin-sochinlik bo'lishini so'rab, duo qildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Huquqiy profilaktika

OCHIQ MULOQOT

Guliston shahridagi "Yoshlar markazi"da Guliston harbiy prokuraturasi va Toshkent harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamkorligida ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda Sirdaryo viloyatida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar, shuningdek viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi hamda uning barcha tuman (*shahar*) bo'limlari xodimlari ishtirok etdi.

Muloqotda korrupsiyaning salbiy oqibatlari, qonun buzilishi holatlariga murosasiz munosabatda bo'lish, xizmat intizomini mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mavzuga doir videofilm ishtirokchilarning hushyorligini yanada oshirdi.

Adliya katta leytenanti
Aybek ARTIKBAYEV,
Guliston harbiy
prokurorining yordamchisi

Ijtimoiy himoya

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik hospitalining malakali shifokorlari ishtirokida poytaxtimizning Bektemir tumanida navbatdagi bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

NAVBATDAGI tibbiy ko'rik

Unda Husayn Boyqaro va Bektemir mahallalarida yashovchi aholi, jumladan nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar malakali tibbiyot mutaxassislari tekshiruvdan o'tdi.

Jarayonda shifokorlar tomonidan har bir fuqaroga zarur tibbiy tavsiyalar ham berib o'tildi. Bu kabi tadbirlar izchil davom etmoqda.

Adliya podpolkovnigi
G'iyosiddin RAXMONOV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
yordamchisi

Uch avlod uchrashuvi

BURCH, JASORAT, MATONAT!

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Maktabgacha va maktab ta'limi, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikda poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 345, 346 va 347-sonli maktablarda o'quvchilar va mahalla yoshlari ishtirokida "Uch avlod" uchrashuvlari va vatanparvarlik tadbirlari o'tkazildi.

"Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida tashkil etilgan tadbirlar davlatimiz madhiyasini barcha birgalikda jo'r bo'lib jonli ijro etishdan boshlandi.

Uchrashuvlarida so'z olganlar yurtimizda "inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilgan va izchil davom etayotgan islohotlar, yoshlar uchun yaratilgan ulkan imkoniyat va imtiyozlar qaysi sohada bo'lmasin, Vatanga xizmat qilishning sharafi va saodati, shuningdek el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan millat fidoyilarining jasorati haqida to'xtalib o'tdi.

Maktab o'quvchilarining she'r va milliy raqslari, harbiy orkestrning Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari, faxriy qorovul va maxsus bo'linmaning ko'rgazmali chiqishlari, maxsus texnika namoyishi o'quvchi-yoshlardagi vatanparvarlik tuyg'usini, harbiylikka bo'lgan ishtiyiqni yanada oshirdi.

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
katta yordamchisi

Inson qadri uchun

Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi bilan hamkorlikda harbiy qismlarning birida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

SAYYOR QABUL

Dastavval o'tkazilgan ochiq muloqotda yurtimizdagi islohotlar va ularning hayotiy ifodasi, harbiylar hamda ularning oila a'zolari uchun yaratilgan keng imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha so'z yuritildi.

Harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari tegishli soha mutaxassislari ishtirokida tinglanib, murojaatlarini joyida hal etishga asosiy e'tibor qaratildi.

Ko'rib chiqish uchun muddat talab etiladigan murojaatlar nazoratga olindi.

Adliya mayori
Aziz JAMOLIDDINOV,
Chirchiq harbiy
prokurorining
katta yordamchisi

Baxshida



“G‘ALABA BOG‘I” DA, “Millat fidoyilari” xiyobonida

2000-yili Surxondaryo viloyati Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog‘li hududlariga bostirib kirgan xalqaro terroristlar guruhi bilan to‘qnashuvlarda mardlarcha halok bo‘lgan yigitlarimizning yorqin xotirasiga bag‘ishlayman.

Go‘daklarning qo‘lchalarin ushlab keling,
Kelinlarga oq ro‘mollar tashlab keling,
Kuyovlarni ziyoratga boshlab keling,
Tushkun, g‘amgin xayollardan g‘olib keling,
Keksalarga poyonozlar solib keling,
Yurolmasa, yelkalarda olib keling,
“G‘alaba bog‘i”ga, “Millat fidoyilari” xiyoboniga.

Bunda turar alp yigitlar, masrur ko‘rdim,
Yengib bo‘lmas bir el ko‘rdim, mag‘rur ko‘rdim,
Musavvirlar chiza olmas tasvir ko‘rdim,
Ular hozir chegaradan qaytib keldi,
Bamisoli u dunyodan qaytib keldi,
Vatan jondan yaralganin aytib keldi,
“G‘alaba bog‘i”da, “Millat fidoyilari” xiyobonida.

Yurtboshimning mehri bilan ko‘kargan bog‘,
E‘tiqoddan, ehtiromdan ko‘kargan bog‘,
Onalarning siniq ko‘nglin ko‘targan bog‘,
Siniq dilni osmon qadar ko‘targan bog‘,
Ta‘rifini aytib ado etib bo‘lmas,
Bu yerlardan shunchaki o‘tib bo‘lmas,
Bu bir bog‘ki, tillolarga topib bo‘lmas,
“G‘alaba bog‘i”da, “Millat fidoyilari” xiyobonida.

Ana Mahmud, ana Ismat, Elomonlar,
Yunusjon-u Bahromjon-u Ma‘ruffjonlar,
Xayriddin-u Muhiddin-u Qahramonlar,
Yunus, Chori, Dilshod bunda kulib yurar,
Yoniga kim kelganini ko‘rib yurar,
Oy qizlarga qizil gullar terib yurar,
Shermuhammad, Alisherjon, Ulug‘beklar,
Kamoliddin, Boburjon-u Otabeklar,
Mashrabjon-u Anvarjonlar, Asilbeklar,
“G‘alaba bog‘i”da, “Millat fidoyilari” xiyobonida.

O‘q teksha ham uchuvchimiz Narimanjon,
Yovni qirdi, terrorchini etdi yakson,
Osmonlarga olov bilan yozdi doston,
Doniyor-u Sayyor bilan sayr qiling,
Tinchlik qanday ulug‘ ne‘mat so‘rang, biling,
Bunga keling, mardlar bilan birga bo‘ling,
“G‘alaba bog‘i”ga, “Millat fidoyilari” xiyoboniga.

Kelganlarning tovonida chaqin turar,
Yuraklari nurli turar, yorqin turar,
Bu bir bog‘ki, Allohimga yaqin turar,
Bunga keling, dilga xitob yozilgaydir,
Qush tilida nurli kitob yozilgaydir,
Izingizga ajr-u savob yog‘ilgaydir,
“G‘alaba bog‘i”ga, “Millat fidoyilari” xiyoboniga.

Zulfiya MO‘MINOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi



MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov

Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboev

Musahhih: Sayyora Melliqo‘ziyeva

Buyurtma: V-6123

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 823 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan
tahririyati bilan bog‘lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya